

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 9 (497.1)

KUCHIMOV AKMAL RABBIMOVICH

**ISROIL – FALASTIN MUNOSABATLARI TARIXIDAN (1948-
2013 Y.Y.).**

5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi
Magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi: "Umumiy tarix"

Ilmiy rahbar:
_____ dots.M.R.Rahmatullayev.

kafedrasi mudiri
_____ dots. M.M.Hoshimova
"_____" 2015 y.

SAMARQAND 2015

Kirish

I bob. Isroil va Falastin arablari o'rtasidagi qarama-qarshiligining kelib chiqishi va kuchayishi. (1948-1979).

- 1.1. 181-rezolyutsiya va Buyuk Britaniya mandatining tugatilishi
- 1.2. 1967 va 1973-yillardagi urushlar va tinchlik o'rnatilishiga dastlabki qadamlar.
- 1.3. Falastin arablari huquqlarining tan olinishiga keying qadamlar. Kemp-Devid shartnomalari.

II bob. Intifada. Tinchlik shartnomasi tomon navbatdagi o'zaro intilishlar (1987-2003).

- 2.1. Birinchi intifada (1987-1993).
- 2.2. Falastin – Isroil muzokaralari 90- yillarda.
- 2.3. Ikkinchi intifada (2000-2003).

III bob. Isroil – Falastin munosabatlari hozirgi bosqichda (2003-2013).

- 3.1. Qochoqlar muammosi.
- 3.2. Isroil manzilgohlari masalasi.
- 3.3. Quddus (Al Quds) maqomi isroilliklar va falastin arablari nigohida.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Falastin muammosi bugungi kunimizgacha o'zining to'liq yechimiga ega bo'la olmay kelayotgan voqealardan biri sifatida butun dunyo siyosatchilarining diqqat-e'tiboridagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Falastin – Old Osiyodagi tarixiy o'lka, maydoni 25 ming km.kv.ni tashkil etadi¹. Falastinda ilk odam ajdodlari qoldiqlari so'nggi paleolit davridan boshlab uchraydi. Falastinning neolit davri Iyerixon shahar madaniyati bilan xarakterlanadi.²

Miloddan avvalgi V-IV mingyillikda Falastin hududiga semit qabilalari kirib keladi. Miloddan avvalgi XVI-XIII asrlarda Falastinda Misr hukmronligi o'rnatiladi. Miloddan avvalgi XIII asr oxirlarida Falastinda filistimlyan davlatchiligi shakllanadi. Miloddan avvalgi XI asrda Falastin hududida Isroil-Iudiya podsholigi tashkil topadi. Bu podsholik Dovud va Solomon podsholar davrlarida o'z ravnaqining cho'qqisiga erishadi. Miloddan avvalgi 953-yillar atrofida Isroil-Iudiya 2 ta podsholikka bo'linib ketadi: Isroil va Yahudiya (Iudiy). Miloddan avvalgi VIII asr oxirlarida Isroil podsholigi hududi Ossuriya davlati tomonidan egallanadi. Keyingi davrlarda bu o'lka Ahamoniylar (Miloddan avvalgi VI asr), Aleksandr (Miloddan avvalgi IV asr), so'ngra Ptolomeylar va Rim davlati tarkibiga qo'shib olinadi. Milodiy VIII asrda Arab xalifaligi Falastin hududini egallab, bu yerda arablar hukmronligi tarixini boshlab beradilar. Milodiy 1516-yilda Falastin hududi Usmoniylar imperiyasi tomonidan egallanadi.

XIX asrning 40- yillaridan boshlab Falastin hududiga G'arbning e'tibori kuchayadi. Dunyo bo'ylab tarqalib ketgan yahudiylar, o'zlarining haqqoniy tarixlarini yaxshi bilganligidan, bu paytga kelib, qariyb uch ming yil avval mavjud bo'lgan Isroil davlatchiligini qayta tiklamoqchi bo'ladilar. Shu bois Falastinga yahudiylarning ommaviy immigratsiyasi jarayoni boshlanadi. Oxir-oqibatda, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida tag'in Falastin yahudiylarning diqqat - markazida

¹ “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” 9-jild. T. 2005.177-bet

² Кузнецов Д.В Арабо-израильский конфликт: История и современность Издательство БГПУ 2006 стр 6. Internet//mirknig.com

bo'lib qoladi. Ayni vaqtda, aynan XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida bir necha o'n yilliklardan buyon hozirgi kunimizgacha davom etib kelayotgan Yaqin Sharq inqirozi – arab-Isroil mojarolariga va Falastin muammosiga asos hamda shart-sharoitlar yaratilgan edi.³

XX asrning dastlabki 40 yili davomida 700 mingga yaqin yahudiylar Falastinga ko'chib keladilar. BMT XKning 1947-yil 29-noyabrdagi 181 (2) rezolyutsiyasi bu o'lkada turli etnik va diniy xususiyatlarga ega bo'lgan ikkita xalqning (arab va yahudiy) alohida-alohida mustaqil davlatlari tuzilishiga imkon bergandek bo'ladi. Ammo, Falastin arab xalqi uchun ming afsuslar bo'lsinki, bu rezolyutsiya (qaror) asosida faqatgina yahudiylarning Isroil davlati tashkil etiladi, xolos. Arab rahbarlarining no'noqligi va tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay olmasligi sabab, Falastin arab davlati tuzilmay qoladi. Ayni paytda, Isroil BMT XK tomonidan Falastin arab davlati uchun ajratilgan hududlarning 60%ini ham kuch bilan egallab oladi. Isroil bosib olingan hududlardan arab aholisini o'z ona yurtidan haydab yuborib, mintaqada qochoqlar muammosini keltirib chiqaradi.

Falastin muammosi – bu Falastin arab xalqining o'z davlatini tuzish yo'lidagi kurashi jarayonidir. Bu jarayonda falastinlik arablar va ularga qo'shni bo'lgan boshqa arab davlatlari Isroil bilan harbiy to'qnashuvlarga duch keladi. Falastin davlatini shakllantirish muammosi hozirgacha butun dunyo diqqat-markazidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

“Bugungi kunda mintaqalar xavfsizligi va alohida davlatlar milliy xavfsizligini ta'minlamay turib, umumiy xalqaro xavfsizlikka erishib bo'lmasligi hammaga ravshan” – deydi prezidentimiz I.Karimov o'z nutqlaridan birida.⁴ Prezidentimizning bunday purma'no so'zlari naqadar topib aytilgan gapligini bugun tarix ko'rsatib turibdi. Yaqin Sharq mintqasida, Falastin zaminida sodir bo'layotgan Falastin-Isroil mojarolari ularning qo'shnilari bo'lgan boshqa arab davlatlarining tinchlik va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bosidan,

³ Кузнецов Д.В Арабо-израильский конфликт: История и современность. Издательство БГПУ. 2006 стр 6. Internet//mirknig.com

⁴ I.Karimov “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz”. 9-jild. Toshkent. 2001. 106-bet.

Falastinga qo'shni bo'lgan arab davlatlari o'zlarining maxsus tashkilotlari – ADL (Arab Davlatlari Ligasi) ning asosiy faoliyat yo'nalishini Falastin muammosini bartarf etishga qaratadi Dissertatsiyaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunimizda sayyoramizning eng qaynoq nuqtalaridan biri bo'lib qolayotgan va dunyo hamjamiyatinnig e'tiborida bo'lib turgan Yaqin Sharq mintaqasidagi vaziyatning (Falastin muammosi) asl tarixi nimada ekanligini, bu muammoning kelib chiqishiga aslida qanday omillar sabab bo'lganligini o'rganish va kelajak egalari bo'lmish yoshlarga tarixiy voqealardan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish orqali, ularda dunyodagi siyosiy voqealarni chuqur tahlil qilish tajribasini hosil qilishdan iboratdir.

Muammoning o'rganilish darajasi. O'zbekistonda Isroil – Falastin muammosiga bag'ishlangan bir necha ishlar yozilgan bo'lsada, ularda muammoning bugungi kungacha bo'lgan holati batafsil yoritib berilmagan. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda qochoqlar, muammosiga, G'azoda qurilgan manzilgohlar muammosiga, Quddus masalasiga batafsil to'xtalib o'tilmagan.

Tadqiqotning davriy chegarasi: Magistrlik dissertasiya ishi o'z davriy chegarasiga Falastining ikkiga bo'linishidan bugungi kungacha bo'lgan davrni qamrab oladi (1947 – 2013 yy.).

Magistrlik dissertasiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Magistrlik dissertasiya ishi SamDU tarix fakulteti umumiy tarix kafedrasining magistrlik dissertasiya ishlari rejasi asosida bajarilgan. Hamda kafedraning bosh mavzusi hisoblangan “Jaxon tarixining dolzarb muammolari va ularni tarixshunoslikda o'rganilishi” bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi: Isroil – Falastin muammosining kelib chiqishini, uning keskinlashib borishini, bugungi ahvolini o'rganish va muammolarni tahlil etish, ularning o'rganishdagi ahamiyatini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot predmeti va obektlari. Falastin hududi, G'azo sektori, Iordan daryosining g'arbiy sohili, ikki davlat o'rtasida bo'lgan urushlar va kelishuvlar, qochoqlar muammosi, Quddus shahri, Isroil manzilgohlari.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari. Magistrlik dissertasiya ishida tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy haqiqat va xolislik nuqtai-nazaridan yondashilgan. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida tarixiy tadqiqotlar oldiga qo'ygan vazifalardan kelib chiqib, mavzuni yoritish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko'zda tutilgan. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy – falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, sistemalashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, qiyosiy solishtirma, obektiv holatni tahlil qilish kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotda yangi va zamonaviy progressiv ketma-ketlik nazariyasi asos qilib olindi.

Mavzuning tarixshunosligi: Falastin muammosi tarixini o'rganish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jonlandi. Bu ishda SSSR tarixchilari faoliyatiga alohida to'xtalish lozim. Bu borada, ayniqsa, Falastin muammosi va Yaqin Sharq davlatlari tarixining "otasi" hisoblangan Ye. M. Primakovning faoliyati samaralidir. U bu mavzuga bag'ishlab "Анатомия ближневосточного конфликта" М. 1978 ("Yaqin Sharq mojarolari anatomiyasi"), "История одного сговора" М. 1980 (" Bir kelishuv tarixi"), Belyayev I. P. bilan hammualliflikda "Египет: время президента Насера" М, 1974 (" Misr: Nosir prezidentligi davrida") kabi kitoblarni nashr ettiradi. Primakovning dastlabki asari "Yaqin Sharq mojarolari anatomiyasi" da Falastin muamosining kelib chiqishiga sabab bo'lgan yahudiylarning Falastin hududiga immigratsiyasi tarixi, bu muamoning paydo bo'lish jarayonlari va oqibatlari xususida so'z boradi. " Bir kelishuv tarixi" asarida esa Falastin muammosini bartaraf etish borasida 1978-1979 yillarda bo'lib o'tgan Kemp-Devid muzokaralari tarixi haqida ma'lumot beriladi.

Yana bir rus tarixchisi Knyazev A.G. o'zining "Египет после Насера (1971-1980)" М. 1980 ("Nosir prezidentligi davridan keyingi Misr") kitobida Misrning liberal qarashdagi prezidenti A.Sadatning ADL dagi yetakchi davlat mavqeida turganligidan foydalanib, uning Falastin muammosini bartarf etish borasidagi amaliy faoliyati haqida ma'lumotlar beradi.

Yuqorida nomlari tilga olingan olimlardan tashqari yana bir qator tarixchilar bu masalaga bag'ishlab o'z asarlarini yozganlar. Jumladan, Kutsenkov A.A va Chicherov A.I. “Внешняя политика стран Ближнего и Средного Востока” М, 1984 (“Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari tashqi siyosati”), D.V.Kuznetsov “Арабо-израильский конфликт: История и современность” (“Arab-Isroil mojoralari: tarixi va buguni”), Moskva Davlat Universitetining aspirantkasi bo'lgan A.Kozlova “Эволюция Палестины – израильских отношений” (“Falastin-Isroil munosabatlarining evolyutsiyasi”) kabi tarixchlarning asarlari va tarix fanlari doktori S.V.Kiselevning “Азии и Африки” jurnalida shu mavzuga bag'ishlab e'lon qilingan bir qator maqolalari ushbu mavzuni bayon etishga bag'ishlangan.

Falastin muammosi tarixi nafaqat rus va G'arb olimlari tomonidan, balki Falastin arab xalqi tarixchilari tomonidan ham atroflicha yoritiladi. Bugungi Falastin davlatining rahbari bo'lgan Mahmud Abbos Falastinning eng yangi tarixi bo'yicha bir qator asarlar yozadi. Bularga “Falastin muammosi” Damashq.1978, “Sionizm- boshlanishi va yakuni” Damashq.1980 kabi Falastin muammosiga bag'ishlangan asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.⁵

Mustaqilikka erishganimizdan so'ng O'zbekistonda ham jahon tarixiga bo'lgan qiziqish va e'tiborning samarasi o'laroq M.Nishonov bu mavzuga bag'ishlab “Yaqin Sharq muammosi va mojaroni tinch hal etish jarayonlari (1948 – 2002)”. Toshkent. 2004 kitobini nashr ettiradi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi: Falastin muammosining paydo bo'lishi tarixini va uning Falastin arab xalqi uchun keltirgan oqibatlarini o'rganish, shuningdek, ADL ning bu muammoni bartaraf etish jarayonidagi amaliy faoliyati natijalarini chuqur ilmiy tahlil qilgan holda bayon etishdir.

Dissertatsiyaning hajmi: ish kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar kabi qismalardan iborat.

⁵ Киселев.В “Махмуд Аббос (Абу Мозин) штрихи к портрету”// “Азии и Африки” 2005. N 7

I BOB. ISROIL VA FALASTIN ARABLARI O'RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIGINING KELIB CHIQISHI VA KUCHAYISHI. (1948-1979).

1.1. 181-rezolyutsiya va Buyuk Britaniya mandatining tugatilishi

Falastin muammosi xalqaro hayotning keskin masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Falastin muammosi – bu muammoning tub asosini tashkil etgan Falastin-Isroil mojarasi bilan xarakterlanadi. Bu mojaro XX asrning boshidan hozirgi kunimizgacha aniq bir yechimga ega bo'la olmay jiddiy xalqaro xavotirlarga sabab bo'lgan muhim masalalardan biridir. Falastin muammosi o'z tarixida ko'plab o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, mohiyatiga ko'ra hamisha Falastin arab xalqining milliy ozodlik harakati hamda Falastin arab xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi kurashini anglatib kelgan.

Sionizm-Quddusdagi Sion tepaligi nomidan olingan. Bibliya rivoyatlariga ko'ra, bu yerda Dovud podshoning (miloddan oldingi XI asr oxiri X asr boshi) qarorgohi va Xudo Yaxvening uyi bo'lgan. Sionizm siyosiy-mafkuraviy harakati XIX asrning oxirida vujudga kelgan va dunyodagi barcha yahudiylarni Falastin zaminiga ko'chirish hamda u yerda yahudiy davlatini tashkil etish maqsadini qo'ygan.

1897-yilda Bazel (Shveysariya)da umumjahon sionistik tashkiloti tuzildi.⁶

(1960-yildan butunjahon siyonistik tashkiloti)⁷. U jahondagi barcha yahudiylarni Falastinga yig'ish va u yerda yahudiy davlatini tashkil etishni maqsad qilib qo'ygan. Sionizmning siyosiy-mafkuraviy oqim sifatida paydo bo'lib shakllanishida Avstriyalik yahudiy jurnalist Teodor Benyamin Zeev Gerselning xizmatlari beqiyos.⁸ 1896-yilda T.Gersel tomonidan yozilgan “Yahudiy davlati” (nemischa. Der Judenstaat) deb nomlangan kitob ommalashib ketadi. Bu kitobda bo'lajak yahudiy davlati va sionizmning tamoyillari bayon qilingan. T.Gerselning

⁶ Сионизм-статья из электронной еврейской энциклопедия. Internet//Vikipediya

⁷ Кузнецов Д.В. Арабо-израильский конфликт: История и современность. Издательство БГПУ. 2006., с.8.

⁸ Сионизм - статья из электронной еврейской энциклопедии. Internet//Vikipediya

fikricha dunyo bo'ylab tarqalgan yahudiylar xudo tomonidan tanlangan xalqdir. Yahudiylar boshqalar bilan munosabatda tenglikka erishish uchun o'zga millatlarga o'xshab bir millat sifatida o'rta chiqishlari kerak. Bu tenglikka erishish uchun qudratli davlatlar himoyasi ostida yahudiy davlatini tashkil qilmoq kerak.

1897-yilda Gersel Bazelda bo'lib o'tgan birinchi butunjahon yahudiylar konferensiyasiga rahbarlik qildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu kongressda "Butunjahon siyonistik tashkiloti" tuziladi.

1916-yil 9-16 mayda Londonda Angliya va Fransiya rahbarlari o'rtasida Osiyo Turkiyasini bo'lish masalasida bo'lib o'tgan uchrashuvda Sayks-Piko kelishuvi imzolanadi (P.Sayks - Britaniya harbiy mahkamasi boshlig'i. F.Jorj.Piko - Fransiya davlat arbobi)⁹ Unga ko'ra Falastinda xalqaro rejim o'rnatilishi kerak edi. Shuningdek, Sayks-Piko maxviy kelishuviga binoan yemirilib borayotgan usmonli turklar imperiyasi ikki davlat (Angliya va Fransiya) tomonidan taqsimlab olingani qayd etilgan. Mazkur taqsimotga muvofiq inglizlarga Iroq (Mesopatamiya), Falastinning uncha katta bo'lmagan qismi, ushbu hududda joylashgan Xayra va Akkra bandargohlari; fransuzlarga esa Suriya va Livan tegishli deb qayd etildi. Shu bilan birga Angliya Fransiyaning ogohlantirmagan holda Falastin muammosi bo'yicha butunjahon sionistlar tashkilotining o'sha vaqtlardagi rahbari Veysman bilan aloqa o'rnatib, maxviy muzokaralar olib bordi. Bu muzokaralar ijobiy natijani bera oldi. Bir yildan ortiq davom etgan muzokaralardan so'ng birinchi jahon urushi yillarida B.Britaniya tashqi vaziri lavozimida ishlagan Artur Jeyms Balfur nomi bilan atalgan "Balfur deklaratsiyasi" ishlab chiqildi. Bu deklaratsiya Falastinda yahudiylar davlatini barpo etishga qaratilgan sionistlar tashkilotining ko'p yillik harakatlarining nazariy natijasi bo'lib, deklaratsiya mazmuni 1917-yil 2-noyabrda B.Britaniya tashqi ishlar vaziri Artur Jeyms Balfur tomonidan Britaniya sionistlar federatsiyasining vitse-prezidenti Lionel Uolter

⁹ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.113.

Rodshild nomiga yozilgan maktubida bayon etilgan edi. Unga ko'ra Falastinda "Yahudiy milliy o'choqlari" tashkil etilishi kerak edi.

Falastinda yahudiy immigratsiyasining o'sishi arab millatparvarlarining bosh ko'tarishiga olib keldi va yahudiylar bilan arablar o'rtasidagi munosabatlar yomonlashuviga sabab bo'ladi. Tez orada arablarning ommaviy noroziliklari boshlanadi. Hali 1920-yilning bahorida bu yerda antiimperialistik va antisionistik harakat boshlandi. Bu harakatni Arab-Falastin kongressida birlashgan Falastin millatparvarlari boshqargan. Bunda arablar Britaniya hukumatidan yahudiylar immigratsiyasini cheklashni talab qildi.¹⁰

Eng yirik namoyishlardan biri 1921-yilda arab va sionistlar o'rtasida bo'lib o'tadi. 1921-yil Arab-Falastin kongressi (bu tashkilot 1920-yilda tuzilib, yilda bir marotaba chaqirilar edi. Kongress sessiyalari oralig'idagi davr mobaynida uning funksiyalarini ijroiya qo'mitasi bajarar edi. 1935-yilda Arab-Falastin kongressi Arab-Falastin partiyasi nomi ostida qaytadan tuziladi. Shunigdek, 1936-yilda falastinliklar Oliy Arab qo'mitasini tuzishadi. Bu qo'mita Falastin arablarining milliy ozodlik harakatida yetakchi o'rinni egallaydi) Londonga Muso Qosim poshsho Xusayni boshchiligida delegatsiya yuboradi.¹¹ Delegatsiyaning maqsadi Britaniya koloniyalari vaziri. U. Cherchill bilan uchrashib, Falastin maqomiga oydinlik kiritish edi. Delegatsiya Falastin davlatini tuzish talabini ilgari suradi. Lekin Cherchill bunga rad javobini beradi. 1922-yil Cherchill bu masalada o'z memorandumini e'lon qiladi. Bu memorandumda shunday deyilgan edi: "Biz "Balfur deklaratsiyasi" bo'yicha ish ko'ramiz. Unga ko'ra biz Falastin parlamenti va shu bilan birga Falastin hukumatini ham tuzamiz. Bizning maqsadimiz bu yerda yahudiylar davlatini tuzish emas, balki yahudiy o'chog'ini tashkil etishdir".

Arab Falastin kongressi Cherchill memorandumini rad etdi¹². Biroq inglizlar bu memorandumni 1922-yil avgustida e'lon qilingan Falastin konstitutsiyasi

¹⁰ Палестинское проблема: история и современности. М.2009., с.123.

¹¹ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.119.

¹² Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.119.

asoslariga kiritadi. Konstitutsiya aholiga diniy marosimlarni erkin o'tkazishni kafolatladi. Falastin arab aholisi bu konstitutsiyani boykot qildi.

XX asrning 20-yillari oxirida Falastinda favqulodda jiddiy vaziyat yuzaga keldi. Har kuni xalq kurashlari bo'lib turdi. 1929-yil avgust oyida bu kurashlar xalq qo'zg'oloniga aylanib ketdi. Bu xalq qo'zg'olonlarining asosiy harakatlantiruvchilari dehqonlar sinfi edi. 1929-yil avgust oyi o'rtasida Iyerusalimdagi arab kvartali hududi "Nola devori" yonida (Nola devori Solomon maqbarasi devorlari qoldig'i bo'lib, Iudilar jangi davrida buzilgan) sionist-fashistlarining antiarab shiori ostidagi namoyishi boshlanadi unga qarshi falastinliklar ham kurash boshladi. Bu Falastindagi ikkita etnos o'rtasida (arab – yahudiy)gi dastlabki qonli to'qnashuvlar boshlanishiga sabab bo'ldi. Ayni shu vaqtda Misr va Maltadan inglizlar o'z harbiylarini Falastinga olib kiradi. Qo'zg'olon 1929-yil dekabrda inglizlar tomonidan bostiriladi. Qo'zg'olon bostirilgach, qo'zg'olon sabablarini o'rganish maqsadida Falastinga ingliz komissiyasi yuboriladi. Komissiya o'z xulosalarini 1930-yil oktabrdagi "Passfild memorandum" da e'lon qilinadi¹³.

1930-1933-yil Falastinda ishchilar harakatining kuchayish davri bo'ldi. Yarim yil davomida (1931-yil oxiri 1932-yil boshi) arab ishchilarining 4000 nafari ishtirok etgan 20 ga yaqin ish tashlashlari yuz berdi. Falastindagi bunday beqaror vaziyat oxir oqibatda navbatdagi 1933-yilgi oktabr qo'zg'oloni boshlanishiga olib keladi. Agar 1929-yilgi qo'zg'olon sionist kolonizatorlariga qaratilgan bo'lsa, bu qo'zg'olon ingliz imperializmiga qarshi qaratildi. Qo'zg'olon 1933-yil 27-oktabrda Yaffa shahrida boshlanadi.¹⁴ Bu qo'zg'olonda 500 ga yaqin ayollar ham ishtirok etadi.

Falastindagi bu qo'zg'olon boshqa arab mamlakatlari: Transiordaniya, Suriya va Iroqqa ham tarqaladi. Transiordniyadan 2000 ga yaqin harbiylar falastinliklarga yordam ko'rsatish uchun keldi. Biroq bu qo'zg'olonni ham inglizlar bostiradi.

¹³ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.122.

¹⁴ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.124.

1939-yil fevralida Londonda Angliya, Falastin siyosiy partiyasi liderlari, Misr, Iroq, Saudiya Arabistoni, Yaman va Transiordaniya, shuningdek “yahudiy agentligi” boshqaruvchilari ishtirokida “Doira stoli” konferensiyasi chaqiriladi.¹⁵

Konferensiya qanashchilariga Falastinni boshqarish yuzasidan yangi ingliz rejasi taqdim etiladi. Rejaga ko’ra, o’n yil mobaynida yagona arab-yahudiy davlati tuzilishi va u davlat Angliya bilan ittifoqda bo’lishi lozimligi, Angliya bu davlatning harbiy resurslaridan foydalanish imkoniyatini o’zida saqlab qolishi qayd etiladi. Shuningdek, bu reja bo’yicha o’n yilgacha davlatni inglizlar nazorati ostida navbati bilan bir yil arab va bir yil yahudiy vazirlari boshqarishi nazarda tutiladi. 1944 – yilga kelib Falastinda yahudiylar immigratsiyasi to’laligicha yakunlanishi ko’zda tutiladi. Bundan tashqari, bu rejaga ko’ra sionistlarning yer sotib olishiga chek qo’yiladi deyilgan. Bu reja har ikkala etniklar tomonidan qabul qilinmaydi. Arablar mandat tizimini bekor qilib, mustaqil Falastin davlatini tuzmoqchi bo’lsa, yahudiylar o’z davlatlarini tuzib, immigratsiyani cheklashni bekor qilmoqchi edilar. Konferensiya tomonlarning biror – bir kelishuvga erisha olmay natijasiz yakunlandi¹⁶.

Ingliz hukumati o’zining rejasini bir yoqlama akt bilan tasdiqlab, uni 1939 – yil may oyida rasmiy nom bilan “Falastindagi siyosat to’g’risida deklaratsiya” (“Oq kitob”) deb e’lon qiladi¹⁷.

Dastavval arablar tomonidan inkor etilgan bu hujjat keyinchalik qabul qilinadi va 1939 – yildan boshlab “Oq kitob” Angliyaning Falastindagi ingliz siyosatining yangi bosqichini boshlab beradi.

1940 – yil 28 – fevralda “yerlarni berish haqida yangi qonun” qabul qilinadi. Unga ko’ra Falastin hududi 3 ta zonaga bo’linadi :

A. zonasi – Falastin hududining 63,4%ini tashkil etgan bu zonada yahudiylarga yer sotish ta’qiqlangan. Yahudiylarning a. zonadagi yeri 2,9% ni tashkil etgan.

¹⁵ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.127.

¹⁶ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.127.

¹⁷ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.128.

B. zonasi – 31,6%ni tashkil etgan b. zonada yahudiylarga yer berish faqat Oliy Britan komissarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin edi. Bu yerdagi yahudiylarning yeri 7%ni tashkil etgan.

S. zonasi – mamlakat hududining bor-yo'g'i 5%ini tashkil etgan s. zonada yahudiylar cheklanmagan miqdorda yer sotib olishlari mumkin edi. Bu yerda ular 48,9% yerga egalik qilar edi.

Falastin arablari o'zining milliy davlatini qurish jarayonida ichki nizo va qiyinchiliklarga ham duch keldi. XX asrning 30-yillarida Transiordaniya amiri Abdulloh “ Buyuk Suriya “ birlashgan arab davlatini barpo etish tashabbusi bilan chiqqan edi. “ Buyuk Suriya “ davlati Suriya, Livan, Transiordaniya va Falastinning ma'lum qismidan iborat bo'lib, uning taxtida Transiordaniya amiri bo'lmog'i lozim edi. Iordaniyadagi Hoshimiylar xonadoni “Buyuk Suriya “ birlashgan monarxiyasida hukmron sulolaga aylanishi, butun arab dunyosida ularga yetakchilikni qo'lga kiritishga imkon berar edi. “ Buyuk Suriya “ davlatining vujudga kelishi, sionistlarning Falastinda yahudiy davlatini barpo etish rejalariga zarba bo'ladi, degan fikrning muallifi ham amir Abdulloh bo'lgan. Ammo ushbu rejaning bitta kamchiligi shu bo'lganki, unda Falastin arablarining xohish va irodasi, ya'ni mustaqil davlatning sohibi bo'lish istaklari inkor etiladi.

1943-yilda arab mamlakatlarida Arab davlatlari ligasini barpo etish to'g'risida gap borganda Iroq bosh vaziri Nuri Said arablar birligiga erishish rejasini taqdim etgan edi. Tarixda bu reja “ Saodatli yarim oy “ nomi bilan ma'lum bo'ldi. “ Buyuk Suriya “ va “ Saodatli yarim oy “ rejalarida Falastin arablarining taqdiriga befarq qaralgan, ularning mustaqil, erkin davlat tuzish yo'lidagi talabi va kurashi inkor etilgan

Falastindagi ingliz siyosati tobora tushkunlikga yuz tutib borardi. Endi ingliz hukumati bu muammoni hal qilishni BMT ixtiyorida qoldirishga majbur bo'ladi. Shunday sharoitda Falastin muammosi BMT ning 1947-yil may, 1947-yil sentabr-

noyabr, 1948-yil aprel may va 1948-yil sentabr-dekabr oylari bo'lib o'tgan Bosh Assambleya majlislarida ko'rib chiqiladi¹⁸.

1947-yil 15-may kunida BMT sessiyasining yig'ilishida Falastin masalasini o'rganish uchun 11 davlat vakillaridan maxsus komissiya tuzildi. 1947-yil 6-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi II sessiyasida maxsus komissiyaning ma'ruzasi eshitildi. Ushbu ma'ruzada ingliz mandatini bekor qilish va Falastinni mustaqil deb e'lon qilish haqida fikr bildirilgan edi. Biroq Falastinning kelajakdagi davlat tuzilmasi to'g'risida gap borganda kommissiya a'zolari orasida yagona fikr bo'lmagan. Maxsus kommissiya BMTning sessiyasiga ikkita rejani taqdim etadi:

1. Falastinda ikkita : arablar va yahudiylar davlatini barpo etish. Quddus shahri esa BMT nazoratidagi xalqaro statusga ega bo'lgan ma'muriy birlikka aylanishi nazarda tutilgan. Mazkur rejada Falastindagi ikki davlat va Quddus shahri iqtisodiy ittifoqqa bog'lanishi ham shart deb ko'rsatilgan.

2. Ikki millatni birlashtirgan, poytaxti Quddus bo'lgan yagona federativ davlat barpo etish.

Arab davlatlari va Oliy Arab qo'mitasi ikkala rejani ham rad etdi, chunki ular Falastinda faqat yagona arab davlatining barpo etilishini istashar edi. Oxir-oqibatda Falastin bo'yicha tuzilgan maxsus qo'mita Falastin hududida ikki davlat barpo etilishi to'g'risidagi rejasini BMTning sessiyasiga havola etdi. BMT Bosh Assambleyasining maxsus qo'mitasi 1947-yil 22-noyabrda Falastinni bo'lish to'g'risida rezolyutsiyani qabul qiladi. 1947-yil 29-noyabrda Bosh Assambleya Falastinda ikkita teng: demokratik arab va demokratik yahudiy davlati tashkil etilganligi haqidagi 181-sonli rezolyutsiyasini qabul qiladi¹⁹. Unga ko'ra:

1. Yahudiy davlati - 14,1 ming kv.km hududni (umumiy hududning 56%i) egallashi lozim.

¹⁸ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.131.

¹⁹ Вопрос о Палестине и организация объединенных наций. Нью – Йорк, 2008. с.9.

2. Arab davlati - 11,1 ming kv. km hududni (umumiy hududning 43%i) egallashi lozim²⁰.

Shuningdek, 181-rezolyutsiya (qaror) asosida Quddus (Iyerusalim) shahri (aholisi 205 320, umumiy maydonining 1%ini tashkil etgan) xalqaro maqomga ega bo'lganligi, 1948-yilning 1-avgustigacha ingliz mandatining tugashi va qo'shinning chiqarilishi hamda 1948-yil 1-oktabrdan kechikmasdan ikki davlatning mustaqilligi e'lon qilinishi shart deb topilganlining diqqatga sazovordir.

BMTning Falastin bo'yicha qabul qilgan tarixiy rezolyutsiyasi, afsuski, bu zaminda tinchlik va barqarorlikni ta'minlagani yo'q. Chunki bu rezolyutsiyani yahudiylar mamnuniyat bilan kutib olgan bo'lsalar, falastinliklar va arab davlatlari rahbarlari bu rezolyutsiyani tan olishmadi. Ularning fikricha Falastinda faqat arab davlati bo'lishi kerak. BMTning 181-rezolyutsiyasi qabul qilingandan so'ng arab davlatlar ligasi siyosiy qo'mitasi Falastinning bo'linishiga yo'l qo'ymaslik uchun ADL rahnomaligidagi Falastin Ozodlik Armiyasini tashkil etdi. Bu armiya arab davlatlari ligasi tarkibida bo'lgan mamlakatlarning ko'ngillaridan tuzilgan. 1948-yil yanvarida Falastin Ozodlik Armiyasi 3000 ko'ngilli askar bilan Falastinga yuborildi. Sionistlar vakillari ham 1920-yilda tuzilgan o'zlarining "Xagan" harbiy dastasi yordamida yaqinlashayotgan urushga tayyorlandi. Bu yaqinlashib kelayotgan urushga Britaniya hukumati aralashishni istamadi va o'z qo'shinini Falastin hududidan chiqara boshladi. Endi Falastin arablari va yahudiylar o'rtasida qonli to'qnashuvlar boshlanib ketishi muqarrar edi. Shuni ta'kidlash lozimki, 1947-yil noyabr holatida yahudiy qurolli kuchlari qo'mondonligidagi umumiy qo'shin soni 16000 kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 1948-yil 15-may holatiga kelganda 35000 kishiga yetgan.

Sionistlar 1948-yilning yanvar oyida Yaffa shahri bog'chasida portlash uyushtirdilar. Bu portlash oqibatida 22 ta falastinlik arab qurbon bo'ldi, jarohatlangan soni bundan ham ko'pchilikni tashkil etdi²¹. Ertasi kuni sionistlar Iyerusalimdagi "Semeramist" mehmonxonasida ham portlash uyushtirdi, bunda

²⁰ Примаков Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.11.

²¹ Примаков Е. М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.12.

ham 22 nafar falastinlik arab halok bo'ldi. Sionistlarning shunga o'xshash harakatlari 1948-yilning yanvar, fevral, mart oylarida ham sodir etildi. Bu borada, ayniqsa, arablarning Deyr-Yasin qishlog'ida sodir etilgan terakt o'ta vahshiylarcha amalga oshirildi. 1948-yil 9-apreldan 10-aprelga o'tar kechasi sionistlarning "Shtern" va "Irgun svay leumi" harbiy dastalari ushbu qishloqda himoyasiz qolgan aholi ustiga bostirib kirib, ayollar va bolalarni ham qo'shib hisoblaganda 254 nafar arab aholisini qirib tashladi.²² Sionistlarning bunday harakatini ijobiy baholagan "Irgun" harbiy tashkiloti yetakchisi Minoxim Begin o'shanda shunday degan edi: "Deyr-Yasindagi g'alabasiz Isroil davlati ham mavjud bo'lmas edi".²³

1948-yilning aprel oyida sionist harbiy dastalari Hayfa, Yaffa, arab kvartali bo'lgan Kataman va Iyerusalimni okkupatsiya qildi. May oyida Safad, Beysau va boshqa shahar va aholi punktlari egallandi. 1948-yilning may oxiriga qadar bo'lajak Isroil davlati hududlaridan 400 ming arab aholisi quvg'in qilindi. Arablarga hujum qilish jarayonida yahudiy qurolli kuchlarining 13 ta harbiy operatsiyasidan 8 tasi arab davlatiga ajratilgan yerlarda amalga oshirilgan.

1948-yil 14-may kechqurun Buyuk Britaniya hukumati (bosh vazir K.Ettli) o'zining Falastindagi mandati barham topganligini rasman e'lon qiladi²⁴. Ertasi kuni, ya'ni 1948-yil 15-mayda Yahudiy milliy muvaqqat hukumati (sionistlar yetakchisi David Ben Gurion) yahudiylarning mustaqil Isroil davlati tashkil topganligini e'lon qiladi. Bu voqea Tel-Avivdagi Rodshelt xiyobonidagi muzeyda sodir bo'ladi²⁵. Mazkur e'londan 11 daqiqa o'tib Isroil mustaqilligini birinchi bo'lib AQSh, 18 may kuni Sovet Ittifoqi tan oldi²⁶.

Isroil davlati 1949 yil 11 – mayda BMT ga a'zo bo'ladi²⁷. Isroil davlatining tuzilganligi e'lon qilingan kunning o'zida yettita arab davlati: Misr(13 ming), Iordaniya(10 ming), Iroq(10 ming),Suriya(2,5 ming), Livan(1,8 ming), Saudiya

²² Примаков Е. М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.12.

²³ Примаков Е. М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.14.

²⁴ Вопрос о Палестине и организация объединенных наций. Нью – Йорк, 2008. с.12.

²⁵ Млечин Л.М. Израилю 60 лет.Internet//Vikipediya. the new times 12.05.2008 17:21 30 апрел 2012

²⁶ A.Qurbonov "Arab-Isroil urushlari tahlilida Falastin muammosining globallashuv jarayoni" doklad. Yosh Sharqshunoslarning Akademik Ubaydullo Karimov Nomidagi VIII Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Tezislari. T.2010

²⁷ Two Hundred and seventh plenary meeting.TheUnited Nations (11-мая 1949) Архивировано из первоисточника Internet// Vikipediya21-август 2011

Arabistoni(3 ming) va Yaman(6,5 ming) nafar jangchi bilan yangi tashkil topgan davlat hududiga hujum uyushtiradi.²⁸ Shu tariqa birinchi arab-Isroil urushi boshlanib ketdi. Tarixda bu urush Falastin urushi deb atalgan. Urush uch bosqichda bo'lib o'tgan.

Birinchi bosqich: 1948-yil 15-may - 1948-yil 11-iyun. Urushning birinchi bosqichida harbiy ustunlik dastlab arablarning tomonida bo'ldi. May oyining oxirida Arab legioni Falastinning markaziy qismini, Quddusning eski qismini, Iyerixon va Ramallohni egalladi. Iroq qo'shinlari Nablus, Zennin, Tulqorau, misrliklar esa Beer-Sheevuni ishg'ol qilganlar. 1948-yil 29-mayda BMT XK Falastindan Isroilda olib borilayotgan urush harakatlarini to'xtatishni talab etadi. BMT Xavfsizlik Kengashining talabiga binoan 1948-yil 11-iyunda urush harakatlari to'xtaydi. Arab davlatlari qo'shinlarini Falastinga bostirib kirishidan maqsad BMTning 181-rezolyutsiyasini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik edi. Ushbu maqsad Falastin zaminida yagona mustaqil arab davlati barpo ertish dasturidan kelib chiqqan. O'sha yilning o'zida BMT ning Falastindagi vakili shvetsiyalik graf F.Bernadott vujudga kelgan inqirozni bartaraf etish rejasini taqdim etadi.F.Bernadot rejasi 1948-yil 28-mayida Qohira, Tel-Aviv va Rodos orollarida e'lon qilinadi.Bernadott taklifiga binoan, Transiordaniya va mandatli Falastin iqtisodiy ittifoqqa birlashishi, unda Isroil va arab davlatining manfaati markaziy kengash tomonidan himoya qilinishi nazarda tutilgan. Bernadott rejasida talaygina hududiy o'zgartirishlar kuzatiladi. Unga ko'ra Negev sahrosi va Iyerusalim arablar qo'l ostiga o'tishi, Isroil esa G'arbiy Galileya (Iso payg'ambar targ'ibot qilgan viloyat) ni egallashi lozim edi.²⁹ Bernadott rejasi BMT qaror (181-rezolyutsiya)lariga, arab yahudiy manfaatlariga zid kelganligi bois rad etiladi.

Ikkinchi bosqich: 1948-yil 8-18-iyul. Bir necha kunlar ichida Isroil qo'shinlari Galileyadagi 300 kv. mil maydondan tashqari Falastinning butun shimolini ishg'ol etib birlashgan Suriya, Iordaniya kuchlariga zarba berdi.1948-yilning 18-iyuliga kelib BMT XK talablariga binoan harbiy harakatlarda yana

²⁸ A. Qurbonov "Arab-Isroil urushlari tahlilida Falastin muammosining globallashuv jarayoni" doklad. Yosh Sharqshunoslarning Akademik Ubaydullo Karimov Nomidagi VIII Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Tezislari. T.2010

²⁹ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.137.

ikkinchi tanaffus kuchga kirdi. Endi Bernadott yangi takliflarni ilgari surdi. Unga binoan arab qochoqlarini vataniga qaytarish, Quddusdagi yahudiylar jamoatiga muxtoriyat berish nazarda tutilgan. Lekin urushning bu pallasida harbiy ustunlikga erishib, arab davlatiga ajratilgan yerlar ustidan nazorat o'rnatgan Isroil Bernadottning fikrlarini rad etadi. 1948-yil 17-sentabrda yaxudiylarning "Shtern" tashkiloti terroristi tomonidan F. Bernadott o'ldiriladi³⁰.

Uchinchi bosqich: 1948-yil 15-oktabr - 1949-yil 7-yanvar. Isroil qo'shinlari Negev sahrosi va Falluj shahrida jo'ylashgan Misr qo'shinlariga qaqshatqich zarba berib, ularni G'azo sektoriga chekintirdi. Keyinroq isroilliklar Negev sahrosida hujumni rivojlantirib Misr hududiga bostirib kirdi. Misr armiyasi yengildi. 1948-yil oktabr oyining oxirida Isroil armiyasi Livan hududiga bostirib kirdi. Endilikda arab legioni qo'lida qolgan hududlar atrofida ham xavf-xatar tug'ildi. Ana shu yerlarni yo'qotishdan xavfsiragan Iordaniya monarxi Abdulloh ham harbiy harakatlarni to'xtatishga intildi. 1949-yil 7-yanvarida Falastin urushi tugadi. Bu urush yaqindagina tashkil topgan Isroil davlatining g'alabasi bilan yakunlandi. 1949-yil yanvarda Buyuk Britaniya Isroil davlatini rasman tan oldi. Isroil va mag'lub bo'lgan arab davlatlari o'rtasida vaqtincha sulh bitimlari imzolandi. 1949-yil 24-fevralda Isroil-Misr, 1949-yil 23-martda Isroil-Livan, 1949-yil 3-aprelida Isroil-Iordaniya, 1949-yil 20-iyulda Isroil-Suriya o'rtalarida vaqtinchalik sulh bitimi imzolandi. Bu bitimlar vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgani uchun ham hududiy bahslarga chek qo'ya olgani yo'q.

1949-yil oxirida Isroil yetakchilari va Iordaniya qiroli Abdulloh o'rtasida Falastin arab yerlarini o'zaro bo'lib olish masaalsida maxfiy bitim tuziladi. Bu jarayonda Iordaniyani Angliya qo'llab-quvvatlaydi. BMT ham Falastin muammosini hal eta olmadi. Falastin hududida Isroil davlatining tashkil topishi Yaqin Sharq (Falastin) muammosining hozirgacha keskin holda saqlanib qolishiga sabab bo'ldi.³¹

³⁰ Вопрос о Палестине и организация объединенных наций. Нью – Йорк, 2008. с.12.

³¹ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967., с.133.

1.2. 1967 VA 1973-YILLARDAGI URUSHLAR VA TINCHLIK O'RNATILISHIGA DASTLABKI QADAMLAR.

1956-yilda G'azo sektorida "Falastin milliy ozodlik harakati" vujudga keldi. Tashkilot a'zolari BMT yoki arab davlatlari yordamida Falastin muammosini hal qilib bo'lmaydi, degan xulosaga borgan. Shuning uchun ham "Falastin milliy ozodlik harakati"ning rahbariyati Falastin muammosi Falastin arablarining qo'lida bo'lishi kerak deb ta'kidlagan. 1958-yilda Livanda tashkilotning axborot byuleteni nashr etildi. "Bizning Falastin" deb nomlangan axborot byutelenida "Falastin milliy ozodlik harakati"ning dasturi chop etiladi. Dasturda falastinlik arablar qurolli kurashga da'vat qilinadi.

1958-yilda tashkilotning rasmiy va to'liq nomi FATH deb ataldi, ya'ni "Falastin milliy ozodlik harakati". Bu tashkilot Isroil hududiga dastlabki harbiy amaliyotini 1974-yil 31-dekabrda amalga oshirgan.³² 1962-yilda "Al-Asifa" ("Bo'ron") deb atalmish FATHning yirik harbiy dastasi ham tuziladi. 1965-yil 1-yanvarda "Al-Asifa" isroilliklarga qarshi dastlabki harbiy operatsiyasini amalga oshirdi. Shuning uchun ham 1965-yil 1-yanvari Falastin inqilobining tug'ilgan kuni hisoblanadi.

XX asrning 60-yillarida arab-isroil munosabatlarida hamon dushmanlik kayfiyati hukm surar edi. Isroilga qarshi vujudga kelgan arab davlatlari frontida asosiy rolni Misr va Suriya o'ynagan. Misr prezidenti J.A.Nosirning tashabbusi bilan 1964-yil yanvarida Qohirada 13 ta arab davlatlari boshliqlari kengashga yig'ilishdi. Unda Isroilning agressiv siyosatiga qarshi arab davlatlari harakatlarini muvofiqlashtirish masalasi ko'rib chiqildi.³³ Unda Isroilning Iordan suvini Negev sahrosiga chiqarish rejasiga qarshi umumarab pozisiyasi kelishib olindi. Qolaversa Isroilning agressiv siyosatiga qarshi arab davlatlari harakatini muvofiqlashtirish kabi masala ham ko'rib chiqildi. Arab mamlakatlari xalqlari o'zining ozodligi va mustaqilligi uchun bo'lgan kurashda hamjihatlik va birdamlikka intilishi aynan 60-

³² Примаков.Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.16.

³³ Беляев И.П. Примаков.Е.М Египет: время президент Насера. Москва, 1974., с.192.

yillarning o'rtalari va ikkinchi yarmida ko'zga namoyon bo'ldi. 1964 yil sentyabrda Aleksandriyada 1965 yil sentyabrda Kasablankada bo'lgan arab davlat boshliqlarining konferensiyalari bunga misol bo'la oladi. Bu anjumanlarda arab yetakchilari o'z davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan muammolarni birgalikda bartaraf etish yo'llarini belgiladi. Ana shu maqsadga erishmoqchi bo'lgan Misr va Quvayt birgalikda Arab-Afrika bankini ta'sis etganlar. Aytish joizki, Misr, Suriya va boshqa arab davlatlarining imperiyalizm va mustamlakachilikka qarshi kurashi Afrikadagi noarab davlatlarning shu yo'nalishdagi kurashiga jiddiy turtki bo'ldi.

1963 yilda Afrika birdamlik tashkilotining barpo etilishi bunga dalil bo'lishi mumkin. Endi bu tashkilot Afrika qit'asidagi davlatlarning mustamlakachilikka qarshi kurashini muvofiqlashtirib jadallashtirishda yetakchi rol o'ynaydigan mintaqaviy xalqaro tashkilotga aylanishi muqarrar edi. 60-yillarda arab davlatlari qo'shilaslik harakatida ishtiroki muhim ahamiyat kasb etgan. 1961 yil iyulida Misr rahbariyati tashabbusi bilan Qohirada 22 davlat vakillari yig'ilib qo'shilmaslik siyosati tushunchasiga ta'rif berishdi. Qo'shilmaslik siyosati negizida tinch-totuv yashash tamoyillari, qo'shilmagan davlatlar va o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar birdamligi, harbiy bloklarda ishtirok etaslik kabi talablar turgan. Qohira kengashida ishlab chiqilgan qo'shilmaslik harakati tamoyillari 1961 yil sentyabrda Belgradda bo'lib o'tgan qo'shilmaslik harakati konferensiyasining asosiy hujjatlarida o'z aksini topgan. Belgrad konferensiyasi ishtirokchilari (24 afro-osiyo davlat vakillari ishtirok etgan) qabul qilgan bayonnomada, bir qancha muhim siyosiy talablar orasida Falastin xalqining qonuniy huquqlarini tiklash kabi talabi asosiy o'rin egallagan.

Qo'shilmaslik harakatining keyingi konferensiyalarida ham arab davlatlari faol ishtirok etib, mustamlakachilik va imperializmga qarshi kurashda o'zlarining hissasini qo'shib kelgan. 60-yillarning ikkinchi yarmida Yaqin Sharqda vaziyat murakkabligicha qolaverdi. Buning sababi tomonlarning (arablar va isroilliklarning) Falastin muammosi bo'yicha tanlagan qarama-qarshilik pozitsiyasida edi. 1966 yilda Suriya-Isroil chegaralarida bo'lgan harbiy

to'qnashuvlarda artilleriya va aviasiya ishlatildi. 1966-yil noyabr oyida Suriya va Misr o'rtasida birgalikda mudofaa shartnomasi imzolandi. 1967-yilning bahorida prezident J.A.Nosir BMT rahbarlariga murojaat qilib G'azo mintaqasidagi BMT qo'shinlari (bu qo'shinlar 1956-yilgi "Suvaysh inqirozi" davrida kiritilgan edi)ning chiqarilishini so'ragan edi. Bundan ko'zlangan asaosiy maqsad, Isroil bilan bo'lajak urushda Misr qo'shinlariga harbiy yo'lak ochish edi. 1967-yilning 23-may kunida J.A.Nosirning buyrug'i bilan Tirann qo'ltig'i chet davlatlar kemalari uchun yopilib qo'yildi. Nosirning bunday harakati Isroilni Qizil dengizga chiqishidan mahrum etdi. Bunday vaziyatda Isroil BMTga murojaat qildi. BMT bosh kotibi U.Tan J.A.Nosir bilan muzokaralar olib boradi va o'zaro kelishuvga binoan, 6-iyun kuni BMT vositachiligida yuzaga kelgan janjalni bartaraf etish uchun Misr va Isroil o'rtasida muzokaralar boshlanishi ko'zda tutilgan edi. Lekin 1967-yil 5-iyunida Isroil armiyasi bir vaqtning o'zida Misr, Suriya va Iordaniyaga qarshi harbiy harakatlarini boshlaydi³⁴. Bu urush tarixda "Olti kunlik urush" nomi bilan mashhur bo'ladi. BMT XK rezolyutsiyalari va SSSR ning bosimi ostida "Olti kunlik urush" deb nomlangan uchinchi arab-isroil urushi tugatiladi. Uchchala arab davlati uchun ham bu urush halokatli oqibatlariga olib keldi. Olti kun ichida Isroil Misrning Sinay yarim oroli va G'azo mintaqasini, Iordaniyaning sharqiy Quddus va Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ini, Suriyaning Gollan tepaligini bosib oldi va o'zining nazoratini o'rnatdi. Misr va Iordaniya armiyalari tor-mor etildi. Jami 170 ming kv km ga teng arab davlatlari hududida Isroil o'zining to'la hukmronligini o'rnatdi. 1967-yil 29-avgustda ADL kengashining navbatdagi sammiti Sudan poytaxti Xartum shahrida ish yuritdi va unda urushdan keyingi vaziyat muhokama qilindi. Majlis davomida Jamol A.Nosir va Iordaniya qiroli Xusayn Isroil bilan tinchlik shartnomasiga imzo chekishga rozilik bildirishgan. Biroq Saudiya Arabistoni qiroli Feysal Isroilga qarshi urushni davom ettirishni talab qilgan. Agarda front oldi davlatlari (Misr, Suriya va Iordaniya) Isroilga qarshi harbiya harakatlarni davom ettiradigan bo'lsa, unda Saudiya va boshqa neftga boy arab davlatlari (Quvayt, Liviya) urushning barcha harajatlarini o'z gardanlariga

³⁴ Вопрос о Палестине и организация объединенных наций. Нью – Йорк, 2008. с.18.

olishga tayyor ekanligini bildirishgan. Oxir-oqibatda Xartum konferensiyasi Isroilga nisbatan 3 ta yo'q tamoyilini tasdiqladi:

1. Tinchlik shartnomasiga o'rin yo'q
2. Isroilni davlat sifatida tan olmaslik
3. Isroil bilan har qanday muzokaralarga o'rin yo'q

ADL a'zolari Xartumda qabul qilingan tamoyilarga rioya qilishi shart deb belgilangan.

Shuni aytish kerakki, bu paytga kelib FOT rahbariyati va uning a'zolari endi Falastin muammosini hal qilishda faqat ADLga a'zo davlatlar kuch-qudrati va muvaffaqiyatga ishonish noto'griligini anglab yetadilar. Ayniqsa, 1967-yildagi mag'lubiyatdan ("Olti kunlik urush") keyin Falastin rahbariyati faqat o'zlarining kuchlariga ishonadigan bo'ldi. Shu sababdan FOT tarkibida bir qator harbiy-siyosiy guruhlar tashkil etiladi. Ulardan Falastinni ozod qilish xalq fronti 1967-yil; Falastin demokratik-ozodlik fronti 1968-yil tuziladi. Shunisi ahamiyatliki, bu tashkilotlar asosan ADLga a'zo bo'lgan boshqa arab mamlakatlaridagi siyosiy partiyalar ba'zasi asosida tashkil etilgan. Masalan, Falastinni ozod qilish xalq fronti Suriyadagi arab milliy harakati partiyasi bazasi asosida shakllantirilgan.³⁵

1968-yilda FOTning nizomi qabul qilindi. Nizomda barcha falastinliklar o'z huquqlari uchun kurashga chaqirilib, xalqaro hamjamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatni (Falastin arab davlatini barpo etish) amalga oshira olmaganligini bayon qildi. Mazkur nizomda Isroil noqonuniy davlat deb ta'kidlandi. FOT ijroiya qo'mitasiga dastlab Ahmad Shukeysi rahbarlik qildi. U o'z faoliyatining dastlabki yillarida FOT tuzilmasini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tashkilotni takomillashtirish kabi ishlar bilan shug'ullandi. Ammo 1967-yilgi urushdan so'ng A.Shukeysi va Ijroiya Qo'mitasi a'zolari o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi. Shu sabab 1967-yil dekabrda A.Shukeysi iste'foga chiqdi. 1967-1968-yillar FOT Ijroiya Qo'mitasiga Yahyo Hammud raislik qildi. 1969-yilda esa

³⁵.Примаков Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.39.

Yosir Arofat rahbarlik lavozimiga keldi va umrining oxirigacha (2004 yil gacha) FOTning yetakchisi bo'lib qoldi.

1968-yidan boshlab Falastin qarshilik harakati tarkibida oldingi qatorlarda FATH o'tib olgan. 1970-yilda FATH ning safida 50 ming qurollangan jangchilar va 30 ming xalq milisionerlari xizmat qilishgan.

“Olti kunlik urush”dan so'ng 1967-yilning noyabr oyida B.Britaniya tashabbusi bilan BMT XK 242-rezolyutsiysini qabul qildi. Bu rezolyutsiya kuch orqali yangi hududlarga ega bo'lishni umuman rad etgan edi. Rezolyutsiyada :

- bosib olingan hududlardan Isroil qo'shinlari chiqarilishi va ular 5-iyungacha bo'lgan holatiga qaytarilishi;

- Falastin qochoqlari masalasi demokratik ruhda hal etilishi;

- xalqaro dengiz yo'llarida (Tirann qo'ltig'i) kemalarning erkin suzish huquqi kabi masalalar qayd etiladi. B.Britaniya taklif etgan 242-rezolyutsiya qulay, oqilona tuzilgan rezolyutsiya edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, 242-rezolyutsiya Misr, Iordaniya va Livan hukumatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ammo Isroil bu rezolyutsiyani qabul qilmaydi.

1971-yil 8-fevralida BMT elchisi Gumnar Yarring Yaqin Sharqda tinchlik o'natish maqsadida Isroil va Misr hukumatlriga makub yo'llaydi. Maktubda Isroil bosib olgan arab yerlaridan qo'shinini chiqarish va Suvaysh kanalida kemalarga xavf-xatarsiz suzish sharoitini ta'minlash kabi shartlar bayon etilgan. Misrga qaratilgan talablar ichida ikki davlat o'rtasida mavjud urush holatiga barham berish va sulh shartnomalarini imzolash masalasi ilgari surilgan. Boshqacha qilib aytganda, tomonlar BMT XK ning 242-rezolyutsiysini bajarishga chaqirilgan. Ammo Isroil hukumati Gumnar Yarring maktubiga salbiy javob berib, u hech qachon 1967-yil 5-iyunigacha bo'lgan chegaralariga qaytmasligini bildirgan.

1971-yil 27-mayida 15 yilga mo'ljallangan do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Misr-SSSR shartnomasi tuziladi.³⁶ Biroq vaqt o'tishi bilan SSSRning

³⁶ Куценков А.А., Чичеров А.И. Внешняя пслитика стран Ближнего и Средного Востока. М. 1984., с.193.

Misrga katta miqdorda yordam bera olmasligini ko'rgan A.Sadat Sovet Ittifoqiga suyanishdan voz kecha boshlagan. Bu paytga kelib Misrning ichki ahvoli ham og'irlashadi. Shunday vaziyatda Misrga birinchi navbatda Isroil bilan tinch-totuv yashash va Isroil bosib olgan Sinay yarim orolini qaytarib olish shart edi. Muzokaralar orqali Sinay yarim orolini, Sadatning fikricha, AQShning Isroilga qilgan bosimi natijasida qaytarib olish mumkin bo'lgan. Misr prezidenti AQSh hukumatiga qilgan murojaatida, Isroil-Misr muzokaralarini uyushtirib, unda vositachilik rolini ijro etishni so'ragan. AQSh hukumati esa buning evaziga A.Sadatdan Sovet Ittifoqining Misrda joylashgan havo hujumiga qarshi qurollarini chiqarib yubormog'i lozimligini so'ragan.

1972-yil bahorida sovet harbiy maslahatchilari Misr hukumati talabiga binoan mamlakatni tark etdi, havo hujumiga qarshi qurollar Misr teritoriyasidan chiqarildi. Ammo bu choralar amalga oshirilganidan keyin ham Isroil – Misr munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lgani yo'q. Isroil bosh vaziri Golda Meir, yana bir bor uning mamlakati 1967-yilgi chegaralarga hech vaqt qaytmasligini qat'iy ta'kidlaydi. 1973-yilning sentabrida Isroil hukumati zabt etilgan arablar yerida (jumladan Sinay yarim orolida) yahudiylar manzilgohlari qurilishi rejasini e'lon qildi. Isroil hukumatining ushbu qarori A.Sadatning muzokaralarga bog'langan umudini uzdi. Misr prezidenti Damashqqa tashrif buyurib, Suriya rahbari Hofiz Asad bilan Isroilga qarshi birgalikda urush rejasini muhokama qildi.

1973-yil 6-oktabrda yahudiylarning "Iom kippur" diniy bayrami kunida Misr va Suriya qurolli kuchlari Isroilga qarshi hujum boshladi. Urushning dastlabki kunlarida Misr armiyasi katta g'alabalarga erishadi. Lekin, AQSh dan kerakli harbiy yordamni olgan Isroil qarshi hujumga o'tib, hatto Misr poytaxti Qohiragacha yetib keladi. Shunday vaziyatda BMT XK ning harbiy harakatlarini to'xtatish haqidagi 338-339-sonli rezolyutsiyalari, AQSh va Sovet Ittifoqining talablari bilan tomonlar 1973-yil 25-oktabrda harbiy harakatlarni to'xtadilar. BMT XK ning qarori bilan o't ochilishi man qilingan chiziq bo'yicha 7 ming kishilik xalqaro tinchlikparvar bo'linmasi kiritildi. BMT Havfsizlik kengashining qarori bilan o't ochilishi man qilingan chizig'i bo'yicha 7 ming kishilik xalqaro

tinchlikparvar bo'linmasi kiritildi. 1973 yil noyabr oyida AQSh davlat kotibi Benri Kissinjerning Isroil va urushda ishtirok etgan arab davlatlariga ketma-ket va tinimsiz tashriflari natijasida mintaqadagi keskinlikni ma'lum darajada yumshatilishiga erishildi. 1973 yil dekabrda BMT boshchiligida Jenevada Yaqin Sharq muammosini bartaraf etish bo'yicha chaqirilgan xalqaro konferensiyada urushda qatnashgan tomonlarning qo'shinlarini bir-biridan uzoqlashtirish masalasi yuzasidan qat'iy qaror qabul qilindi. Shu o'rinda aytish joizki, AQSh davlat kotibi Genri Kissinjerning Isroil va arablarni yarashtirish yo'lida qilgan xizmatlari unga 1973 yilda Nobel mukofotini keltirdi.

Anvar Sadat ,1973-yil urushidan keyin, Xartumdagi 3 ta yo'q prinsipidan voz kechib, Isroil bilan alohida sulh shartnomalarini imzolash yo'lini tanlaydi. Bu borada Sadat tomonidan tashlangan birinchi qadam bu Isroil-Misr chegaralar masalasida kelishuvga erishishdan iborat bo'ldi. 1974 yil 19 yanvarida (Jeneva konferensiyasi qaroriga binoan 1973 yil dekabr) Misr va Isroil o'rtasida qo'shinlar uzoqlashtirish masalasi bo'yicha bitim imzolandi. Hujjatda ta'kidlagandek, Isroil qo'shinlari Suvaysh kanalining g'arbiy qirg'og'idan sharqiy qirg'og'iga surildi. 1974 yil 18 fevralida Misr va AQSh o'rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi (1967 yil 7 iyunida prezident J.A.Nosir hukumati «Olti kunlik urush» vaqtida uzgan edi). 1974 yil 31 mayda qo'shinlar uzoqlashtirish to'g'risidagi bitim Suriya va isroil o'rtasida imzolandi. 1974 yil iyunida Suriya ham AQSh bilan diplomatik munosabatlarni tikladi. Ikkinchi Sinay bitimi 1975 yil 4 sentyabrda imzolandi. Unga muvofiq Misr Isroilga qarshi harbiy harakatlarda ishtirok etmaslik majburiyatini olib, shu bilan birga Suvaysh kanali Isroil kemalari uchun ochiq deb e'lon qilindi. Isroil esa Qizil dengiz qirg'og'idagi yerlar va Abu-Rudays neft koni joylashgan hududni Misrga qaytarib berishi shart bo'lgan. Isroil qo'shinlari Suvaysh kanalidan sharqqa 30-40 km. Surilishi lozim edi. AQSh bu yerda, ya'ni Mitla va Gidi tepeliklarida o'zining elektron kuzatish postlarini barpo etdi. Ikkinchi Siney bitimi kuchga kirishi bilan Misr Isroilga qarshi kurashdan voz kechdi.

1974-yil yanvar oyida imzolangan shartnoma vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, bu shartnoma o'zining nihoyasini topishi kerak edi. 1975-yil 4-sentabrda Isroil-Misr o'rtasida ikkinchi Sinay shartnomasi imzolanadi. Ushbu shartnomaga ko'ra, qo'shinararo masofa (buffer) zonasi 30-40 km gacha kengaytiriladi va zonaga BMT qo'shinlari kiritiladi. Shartnomaga binoan Misr Abu Rudays neft qazib olinuvchi konni ham o'ziga qaytarib oladi. Ikkinchi Sinay shartnomasi asosida Misr Sinay yarim orolining faqatgina 5,5% hududini qaytarib oladi. Buning evaziga Misr hukumati Isroilga nisbatan kuch ishlatish taktikasidan voz kechadi, degan va'dani ham beradi. Ikkinchi Sinay shartnomasida Falastin masalasi, Falastin davlatchiligi to'g'risida biror bir so'z bormagan edi.³⁷

Bu orada 1974 yil 29 – oktabrda Marokash poytaxti Rabot shahrida ADL ning navbatdagi samiti bo'lib o'tadi. Unda FOT Falastin xalqining yagona vakili sifatida tan olinadi.³⁸

³⁷

³⁸ Internet// Vikepediya.Свободная энциклопэдия

1.3. FALASTIN ARABLARI HUQUQLARINING TAN OLINISHIGA KEYING QADAMLAR. KEMP-DEVID SHARTNOMALARI.

XX asrning 70 – yillari oxirlariga kelib A.Sadat endi aynan AQShning vositachiligida Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etuvchi yo'llarni qidirishga o'z faoliyatini bag'ishlaydi. Shu o'rinda aytish lozimki, Sinay shartnomalari (ayniqsa ikkinchi Sinay shartnomasi) arab davlatlari aksariyati tomonidan qabul qilinmadi va keskin tanqidga uchradi. Ikkinchi Sinay shartnomasidan keyin AQShning bevosita faol vositachiligida Isroil-Misr muzokaralari boshlanib ketdi.

1974 yil fevral oyida Qohira va Vashington o'rtasida diplomatik munosabatlar qayta tiklandi. Ma'lumki, ikki davlat orasidagi aloqalar «Olti kunlik urush» paytida J.A.Nosirning tashabbusi bilan uzilgan edi. 1974 yil iyunida AQSh prezidenti R.Nikson Misrga tashrif buyuradi. Uning oqibatida ikki davlat o'rtasida har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish maqsadida hamkorlik komissiyasi tuzildi. Tez orada AQSh Misrga katta hajmda moliyaviy yordam beradigan bo'lib, 1977 yilga kelib Vashingtonning yordami 1 mlrd. dollarni tashkil qilgan.

Misr va AQSh o'rtasida diplomatik aloqalar va siyosiy konsultasiyalar ham avj oladi. A.Saodat endi aynan AQShning vositachiligida Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etuvchi yo'llarni qidirishga o'z faoliyatini bag'ishlaydi. AQShning vositachiligida birinchi (1974) va ikkinchi (1975) Sinay shartnomalari imzolandi. Shu o'rinda aytish lozim-ki, Sinay shartnomalari (ayniqsa ikkinchi shartnoma) arab davlatlari aksariyati tomonidan qabul qilinmadi va keskin tanqidga duch keldi. Ikkinchi Sinay shartnomasidan keyin AQShning bevosita faol vositachiligida Isroil-Misr muzokaralari boshlanib ketdi. Shu bilan birga A.Saodatning xohish-irodasi ila SSSR va Misr o'rtasidagi munosabatlar kundan-kunga yomonlashdi. 1976 yilda Misr hukumati 1971 yilning 27 iayida imzolangan «Sovet Ittifoqi va Misr o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma»ni bekor qildi. 1977 yilning yanvar oyidan boshlab esa ikki davlat o'rtasida barcha sohalardagi hamkorlikka chek qo'yila boshlandi.

A.Sadat 1977 – yil CBS telekompaniyasiga bergan intervyusida Isroil bilan tinchlik dialogida ishtirok etishga tayyorligini va ,hattoki, Isroilga rasmiy davlat tashrifi bilan borishi mumkinligi haqida aytib o'tadi.

Bu xabar ikkitomonlama (Misr-Isroil) muzokaralariga turtki beradi. Odatda qat'iy pozitsiyada turuvchi Isroil bosh vaziri Minoxim Begin ham A.Sadatning Isroilga kelishini mamnuniyat bilan qabul qiladi.

1977-yil 19-noyabrda prezident A.Sadatning samolyoti Tel-Avivning Ben-Gurion aeroportiga qo'nadi. A.Sadat Iyerusalimda Knesset(Isroil parlamenti)da qabul qilinadi. Bu voqea ikki tomonlama tinchlik jarayoniga jiddiy tarzda yo'l ochadi.³⁹

A.Sadatning Isroilga qilgan tashrifi arab davlatlari va FOTning qattiq tanqidiga uchradi.⁴⁰ 1977-yil 5-dekabrda Liviya yetakchisi Muammar Kadafi tashabbusi bilan Tripolida arab davlatlar boshliqlari kengashi o'tkazildi. Unda arab rahbarlari Isroil bilan tinchlik shartnomasi imzolashga qarshilik bildirib, matonat va qarshilik harakati fronti barpo etish to'g'risida qaror qabil qiladilar. Bu frontning vazifasi "arab millati manfaatining xoini" A.Sadatni yo'q qilishdan iborat deb belgilanadi. Bunga javoban A.Sadat hukumati matonat va qarshilik harakati frontining a'zolari bo'lmish Suriya, Liviya, Jazoir, Yaman XDR, FOT va front a'zosi bo'lmagan Iroq bilan ham diplomatik aloqalarni uzib tashladi. Misr hukumati FOTga qarshi keskin choralarni amalga oshiradi. FOTning rasmiy vakili D as-Saurani, FOt byuro a'zolari va boshqa Falastin taskilotlarinng vakillari ham Misrdan haydab chiqarildi. Bir necha kun ichida A.Sadat Falastin qarshilik harakatining Misrdagi faoliyatiga barham berdi. Bu voqea Falastin muammosini bartaraf etish borasida ADLga a'zo davlatlar orasida yetakchi o'rinda turuvchi Misrning bu muammoni bartaraf etish ayni vaqtda uning maqsadi doirasiga kirmaganligini bildirib turardi. Shu bilan bir vaqtda A.Sadat AQSh va Isroil rahbariyati bilan muzokaralarni davom ettirishga tayor ekanligini bildiradi. 1977-yil 14-dekabrda Isroil bosh vaziri M.Begin Vashingtonga tashrif buyurgan

³⁹ Из книга Марка Зайчика. «Жизнь Бегина» статья на сайте Z.Man.comInternet//Vikipediya (22.11.2011)

⁴⁰ Князев.А.Г. Египет после Насера 1970-1981. М.1980., с.193.

chog'ida Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etish yo'lidagi o'z rejasini e'lon qilgan. "Begin rejası" bo'yicha Falastinlik arablarğa Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ida va G'azo sektorida "ma'muriy muxtoriyat" berilishi ko'zda tutilgan. Ammo o'sha hududlarda Isroilning okkupatsion tartiboti hukm surishi kerak bo'lgan. Quddus shahrining sharqiy qismi so'zsiz Isroilga berilishi va bosib olingan arab yerlaridagi yahudiylarning harbiy manzilgohlari saqlanishi nazarda tutilgan. Begin rejasida Suriyaning Gollan tepaliklari haqida lom-mim deyilmagan. Beginning tinchlik rejasida Tel-Aviv Sinay yarim orolini tark etishini bir qancha shartlar bilan bog'laganini ko'rsatgan. Aytish joizki, o'sha damlarda A.Sadat "Begin rejası" dagi qat'iy talablarni qabul qilishga tayyor emasdi, chunki undagi taklif va talablar faqat bir tomonning ya'ni Isroilning manfaatini ko'zlagan. Lekin shunga qaramasdan Misr-Isroil-AQSh muzokaralari davom etgan.

1978 yil avgust oyining boshida AQSh Isroil va Misr hukumatlariga navbatdagi bosim o'tkazib, tomonlardan oliy darajadagi uchrashuvni amalga oshirishni so'ragan. 1978 yil 6 avgustida S.Vens Quddusga 7 avgustda Iskandariyaga tashrif buyurib, Begin va Saodatga prezident Karterning maktubini topshirgan. Unda AQSh prezidenti Begin va Saodatni Kemp-Devidga (AQSh prezidentlarining shahardan tashqaridagi qarorgohi) oliy darajadagi uchrashuvga taklif qilgan.

1978 yilning 6 sentyabrda AQSh, Misr va Isroil rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi o'z ishini boshladi. Kemp-Devid qarorgohi Vashingtondan 110 km shimolroqda joylashgan bo'lib, u uchrashuv jarayonida, dengiz piyoda askarlari tomonidan qo'riqlangan. Bu albatta uchrashuvning jiddiyligi va muhimligidan darak berardi. Kemp-Devid uchrashuvining 11-kunida uzoq davom etgan bahslardan keyin, ya'ni 17 sentyabr kuni Karter, Saodat va Begin ikkita hujjatga imzo chekadilar:

1. "Yaqin Sharqdagi tinchlik sulhi tamoyillari"⁴¹

⁴¹ Государство Израиль. Внешняя политика —статья из электронной еврейской энциклопедии. Internet//Vikipediya

2. “Misr va Isroil o’rtasidagi tinchlik sulhi tamoyillari”

Birinchi hujjatga ko’ra Iordan daryosining g’arbiy qirg’og’ida va va G’azo sektorida Isroilning nazorati ostida “o’z-o’zini boshqaradigan muxtoriyat” barpo etilishi nazarda tutilgan. Muxtoriyat, besh yilga mo’ljallangan o’tish davrida tashkil etilishi lozim bo’lgan. Isroil ushbu hududlarda o’zining harbiy va fuqaroviy ma’muriyatlari faoliyatiga barham berishi kerak deyiladi. Isroil qo’shinlarining ma’um qismi belgilangan zonalarga xavfsizlikni ta’minlash uchun ko’chirtirilishi rejalashtirilgan. Iordan daryosining g’arbiy qirg’og’ida va va G’azo sektoridagi yahudiylar manzilgohlari to’g’risida “Yaqin Sharqdagi tinchlik sulhi tamoyillari”da umuman fikr yuritilgani yo’q. Ushbu hujjatda Falastin muammosining keskin masalalaridan biri bo’lmish – Quddus shahrining taqdiri haqida ham so’z yuritilgani yo’q.

Ikkinchi shartnoma bevosita Misr taqdiriga (Sinay yarim oroli masalasi) bog’liq bo’lganligi uchun batafsil to’xtalib o’tish shart emas. Shu o’rinda yana bir karra ta’kidlash lozimki, 1978-yil 17-sentabrda imzolangan ikkinchi hujjat - “Misr va Isroil o’rtasidagi tinchlik sulhi tamoyillari” bu hali sulh shartnomasi emas, balki uning taxminiy rejasi edi, xolos. 1978 yilning 12 oktyabrda Misr va isroil delegasiyalari shartnomaning ayrim asosiy bandlarini muhokama qilish uchun Vashingtonda uchrashdi. Isroil hukumati vakillari uchrashuvda: Isroil qo’shinlari Sinay yarim orolidan chiqarilayotgan dastlabki bosqichida ikki davlat o’rtasida diplomatik munosabatlar o’rnatish imzolayotgan Isroil-Misr shartnomasida Misrning boshqa arab davlatlari bilan imzolangan har qanday shartnomasidan ustun turganini ta’kidlash (boshqacha qilib aytganda Isroil boshqa arab davlati bilan harbiy to’qnashuvga kirishgan bo’lsa, Misr betaraflikni saqlashi shart edi); imzolanayotgan shartnoma matnida uning va 1978 yil 17 sentyabrda imzolangan «Yaqin Sharqdagi sulhning chegaralari» shartnomasi o’rtasida aloqa bor degan fikrga o’rin qoldirmaslik kabi qat’iy talablar o’rtaga tashlandi. Isroilning oldingi bosimiga yon berib kelgan A.Saodat endi yuqorida zikr etilgan talablarga u tezda yon bera ololmasdi. Misr prezidentining isroilliklar talablarini yumshatilishiga qaratilgan barcha urinishlari ijobiy natija keltirmadi. O’zaro da’vogarlik, bahs va

munozara 1979 yilning mart oyigacha davom etdi. Oxir oqibatda asosan Isroil hukumati talablaridan tuzilgan Misr-Isroil sulh shartnomasining loyihasi qabul qilindi. 1979 yil 8-13 martida AQSh prezidenti Jeyms Karter Yaqin Sharqqa tashrif buyurdi. AQSh prezidentining misr va Isroilga amalga oshirilgan tashrifi natijasida A.Saodat va M.Begin ikkala davlat o'rtasida tinchlik shartnomasiga imzo chekishga rozilik berdilar. Tomonlar shartnomani Vashingtonda 1979 yilning 26 martida imzo chekishga ahd qilganlarini ma'lum qildi. Tomonlar uch oy ichida, 1978-yil 17-dekabrgacha tegishli shartnoma tayyorlashlari kerak bo'lgan. Lekin, ikki davlat o'rtasidagi sulh shartnomasining matni belgilangan muddatga, ya'ni 1978-yil 17-dekabrgacha tayyorlanmadi.

1979-yil 26-martida Kemp-Devidda (Vashington) Misr va Isroil tinchlik shartnomasiga imzo chekdilar.⁴² Unda Misr prezidenti Anvar Sadat, Isroil bosh vaziri Minoxim Begin va AQSh prezidenti Jeyms Karter imzolari mavjud. Shartnomaga ko'ra, Misr va Isroil o'rtasidagi urushga yakun yasash va o'zaro diplomati aloqalarni yo'lga qo'yish qayd etilgan. Kelishuv shartlariga ko'ra Isroil Misrga Sinay yarim orolini qaytarib berishi va Isroil armiyasi Sinay yarim orolidan uch yil mobaynida chiqarilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, bu hujjatda Isroil Falastin xalqining qonuniy huquqlarini tan oladi hamda Falastinliklarga Isroil nazorati ostida avtonomiya beradi, deb belgilangan.⁴³ 1982-yilga kelib Isroil Sinay yarim orolidan o'z qo'shinlarini olib chiqadi.

Kemp-Devid kelishuvlarining ahamiyati shunda ediki, ilk bor Isroil o'zi okkupatsiya qilgan hududlarda arab-falastin xalqiga o'z-o'zini boshqaradigan muxtoriyat tashkil etish huquqini beradi. Ammo, bu reja keyinroq, XX-asrning 90-yillari boshlarida amaliy natijasini topadi.

Kemp-Devid (1978-yil sentabr-1979-yil-mart) shartnomalari arablar dunyosida mutlaqo qabul qilinmadi. ADL o'zining 1978-yil 2-5-noyabrda Iroq poytaxti Bag'dodda bo'lib o'tgan navbatdagi sammitida Kemp-Devid bitimini muhokama qiladi va Misrni Isroil bilan hech qanday shartnoma tuzmaslikka

⁴² Примаков Е.М. История одного сговора. М.1985., с.124.

⁴³ «Принципы мира на Ближнем Востоке» из пакета Кемп-Девидских соглашений (англ.) Internet//Vikipediya

chaqiradi. Ammo, bu chaqiruvga ijobiy javob olinmagach, endi ADL a'zolari qat'iy choralar ko'rishga majbur bo'ladi. Misr savdo kompaniyalariga iqtisodiy boykot e'lon qilinadi. 1979-yil 20-22-noyabrda Tunis poytaxti Tunis shahrida bo'lib o'tgan ADLning navbatdagi sammitida Misr ADL tarkibida chiqariladi va ADL qarorgohi Tunis shahriga ko'chiriladi (1989-yilgacha qarorgoh Tunis shahrida edi). 1981-yil 6-oktabrda Qohiradagi harbiy parad vaqtida A.Sadat harbiylar tomonidan otib o'ldiriladi.

Kemp-Devid kelishuvidan keyin Isroil arablar dunyosiga qarshi siyosatni yanada "dadilroq" qadamlar ila ilgari suradigan bo'ldi. 1980-yilda Quddus shahri Isroilning "abadiy va yagona poytaxti" deb e'lon qilindi, 1981-yil dekabrda Knesset qarori bilan Suriyaning Gollan tepaliklari hududidagi aholiga Isroil qonunchiligi joriy etildi. 1982-yil 6-iyunida Isroil qo'shinlari janubiy Livanga bostirib kirdi. Shu sababdan Livanda joylashgan FOT idoralari Tunisga ko'chiriladi.

II BOB. INTIFADA. TINCHLIK SHARTNOMASI TOMON NAVBATDAGI O'ZARO INTILISHLAR (1987-2003).

2.1.BIRINCHI INTIFADA (1987-1993).

Birinchi Falastin intifadasi (Falastin arablarining Isroil davlatiga qarshi qurolli kurashi) 1987 yilning 9 dekabrda boshlanib, olti yil - ya'ni 1993 yilgacha davom etdi. Birinchi intifada falastinliklar Isroilga qarshi kurashda tosh va qo'lbola qurollardan foydalangani bois "toshlar urushi" deb ataladi. Bu urushga Arab-Isroil urushi davrida bosib olingan xududlarda istiqomat qilayotgan falastinliklar orasida ishsizlikning ko'payishi sabab bo'ldi. O'shanda G'azo mintaqasidagi Jabaliya qochqinlar lagerida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. 1988 yilning 31 iyul kuni Iordaniya podshoxi Xusayn intifada natijalarini kutmayoq, o'z mamlakati Iordan daryosining G'arbiy soxili va Sharqiy Quddusdan voz kechishini ma'lum qildi. 15 noyabr kuni Falastin Ozodlik Tashkilotining Milliy Kengashi poytaxti Quddus bo'lgan Falastin Davlati tuzilgani xaqida qaror qabul qildi. 1989 yilning 2 aprel kuni Falastin Ozodlik Tashkiloti Ijroiya Qo'mitasi raisi Yosir Arofat Falastin Davlatining prezidenti etib saylandi⁴⁴.

1988-yil Falastin tarixida katta siyosiy voqea ro'y berdi. Shu yilning 15-noyabrda FOT oliy organi – Falastin Milliy Kengashi Jazoir shahrida mustaqil Falastin davlati tuzilganligini e'lon qiladi⁴⁵. Ayni vaqtda, Falastin davlatining hududi Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'i (yoki uning qismi, sharqiy Quddus) va G'azo sektorida deb belgilanadi. Falastin Milliy Kengashi a'zolari bu davlatning tuzilishiga turlicha munosabatda bo'ldilar. Milliy Kengash a'zolaridan 253 tasi bu davlatning tuzilishiga rozilik javobini, 46 tasi esa rad javobini beradi, 10 kishi o'zining betarafligini ma'lum qiladi. 1988-yil oxiriga borib, yangi e'lon qilingan davlat dunyoning 70 mamlakati hukumatlari tomonidan tan olinadi.⁴⁶ 1989-yil 30-

⁴⁴ Тўлаганов Ш. Исроил-Фаластин можароси тарихига бир назар. // <http://sharh.uz/munosabat/item/1763-isroil-falastin-mojarosi-urush-intifada>. 18.04.2015 yilda olindi.

⁴⁵ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild.T. 2005.178-bet

⁴⁶ Internet // Свободная энциклопедия

martda Falastin Milliy Kengashining Tunisda bo'lib o'tgan 20-sessiyasida Yosir Arofat Falastin davlati prezidenti deb e'lon qilinadi.

Ammo, 1988-yilning 15-noyabrida e'lon qilingan Falastin davlati shunchaki qog'ozdagi bir e'lon bo'ldi, xolos. Chunki o'sha vaqtda Falastin davlatchiligi uchun hali hech qanday asos yo'q edi. Aniqlangan chegaralar, tanlangan poytaxti, hattoki saylangan hukumati ham yo'q edi. Davlat tuzilishi (strukturasi) qisman tashkil etilgan (armiya yo'q, yarim harbiy holatda ishlaydigan ozgina pozitsiyasi bor, xolos)edi. Falastin davlatining hududiga aylanishi bayon etilgan Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'idagi katta qism hudud Isroil armiyasi tomonidan nazorat qilinardi. Qolaversa, sharqiy Iyerusalimni ham Isroil o'ziga qo'shib olgan edi.

Shunisi ahamiyatliki, aynan 1988-yil 15-noyabr sanasidan keyin Yosir Arofat Falastin Ozodlik Tashkiloti bundan buyon Isroil bilan bo'lajak munosabatlarda terroristik harakatlarni to'xtatadi, degan fikrni ham bayon etadi. Amalda bu keyinchalik ma'lum bo'ladi.

1989 yilda Isroil intifada ko'rinishlarini butunlay yo'q qilmagan bo'lsa-da, uni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Falastin xarakatlari bo'laklarga bo'linib ketdi. Uzoq vaqtdan beri bu fraksiyalar bir-birlari bilan kurashib kelmoqda⁴⁷.

Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatish maqsadida AQSh prezidenti Bill Klinton boshchiligida AQSh ma'muriyati 1990-yilning boshidan boshlab faol vositachilik siyosatini taklif etadi. AQSh ma'muriyatining tashabbusi bilan 1991-yilning 30-oktabrida Madrid (Ispaniya) shahrida tinchlik konferensiyasi boshlanadi. AQSh va SSSR Madrid konferensiyasida raislik funksiyasini ijro etadi. Bu konferensiyada Isroil, Livan, Suriya va birlashgan Iordaniya – Falastin delegatsiyalari ishtirok etadi. Muzokaralar davomida Isroil rahbariyati Yahudiya, Samariya (Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'i Kemp-Devid kelishuvlarida Yahudiya va Samariya viloyatlari deb nomlanishi ko'rsatib o'tiladi) va G'azo mintaqasida falastinliklarga

⁴⁷ Тўлаганов Ш. Исроил-Фаластин можароси тарихига бир назар. // <http://sharh.uz/munosabat/item/1763-isroil-falastin-mojarosi-urush-intifada>. 18.04.2015 yilda olindi.

muxtoriyat huquqini berish haqidagi fikrni bildirib, buning evaziga FOT Isroilni rasman tan olish va ikki tomonlama diplomatik munosabatlar o'rnatishni talab qilgan. 1992-yilda Isroilda hukumat tepasiga Is'hoq Rabbini kelishi bilan (liberal siyosiy qarashli) FOT va Isroil o'rtasidagi munosabatlar o'ta faollashadi. Bu munosabatlarning amaliy ifodasi sifatida 1993-yilda Norvegiya poytaxti Oslo shahrida ikki tomon (FOT va Isroil) o'rtasida naqd 14 ta uchrashuv tashkil etiladi. Unda Isroil tomonidan Yair Xirshfeld, FOT delegatsiyasidan esa Abu Alya vakil bo'ladilar. 1993-yil 20-avgustda Oslo uchrashuvlari jarayonida tomonlar "Tamoyillar deklaratsiyasi yoki o'zini o'zi boshqarish bo'yicha vaqtinchalik tadbir" hujjatini tayyorlaydilar.⁴⁸ Unga binoan falastinliklarning siyosiy dasturidan Isroil davlat sifatida yo'q qilinishi kerak, degan band olib tashlansa, Isroil FOTni Falastin xalqining vakili sifatida tan olishi mumkinligi bildirilgan. Bundan tashqari ushbu hujjatda Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ida va va G'azo sektorida Falastin muxtoriyati tashkil etilishi borasida so'z boradi. Ushbu hujjatda Falastin muhtoriyati 24 kishidan iborat kollegiya tomonidan idora etilishi ham ko'rsatilgan edi. Bu kelishuv hujjatini Isroil tomonidan Shimon Peres, FOT tomonidan esa Mahmud Abbos imzolaydilar. Endi mana shu kelishuvni ikkala tomonning oliy darajadagi rahbarlari rasman tasdiqlashlari kerak edi.

1993 yilning 13 sentyabr kuni Isroil va Falastin Ozodlik Tashkiloti bosib olingan xududlarda "O'z o'zini boshqarish Muvaqqat prinsiplari to'g'risidagi Deklarasiya"ni imzoladi. Bu xujjat Isroil va Falastin Ozodlik Tashkilotining bir-birlarini tan olishini anglatadi.

⁴⁸ Козлова А. Аспирантка кафедры теории и истории М.О.М.Г.Л.У «Эволюция Палестино-Израильских отношений» Internet//google.ru 04.03.2012. 11:55

2.2. FALASTIN – ISROIL MUZOKARALARI 90- YILLARDA.

1993-yil 9-sentabrda Oslo uchrashuvi jarayonida muhim voqea sodir bo'ldi. FOT rahbari Yosir Arofat Isroil davlatini tan olish haqida bosh vazir Is'hoq Rabbinga xat yubordi. Bu xatda u ko'rsatib o'tadiki "Tamoyillar deklaratsiyasi" Yaqin Sharq tarixida yangi davrni ochib beradi. FOT Isroil davlatining tinchlik va xavfsizlik huquqini hamda BMT HK ning №242 va №338-rezolyutsiyalarini tan oladi.

Is'hoq Rabbin ham xuddi shu mazmundagi xatni (FOTni tan olganlik haqida) o'sha kunning o'zida Yosir Arofatga yuboradi.

Oxir-oqibatda, 1993-yil 13-sentabrda I.Rabbin va Yo.Arofat Vashington shahrida "Tamoyillar deklaratsiyasi yoki o'zini o'zi boshqarish bo'yicha vaqtinchalik tadbir" (Oslo–1 nomini olgan) hujjatga imzo chekadilar. Ushbu deklaratsiyada G'azo sektori va Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ida falastinliklarning cheklangan o'z-o'zini boshqaradigan Falastin Milliy Muxtoriyati(FMM)ni tuzish nazarda tutiladi.⁴⁹

Oslo-1 kelishuviga ko'ra, 5 yillik o'tish davrida (1994-1999) FMM Falastin xalqini Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'i va G'azo sektori hududida joylashtirishi kerak. Bu 5 yil ichida falastinliklar va isroilliklar barcha harbiy harakatlarni to'xtatishi, shuningdek, Quddusning yakuniy maqomi, Falastin qochoqlarini okkupatsiya qilingan joylarga qaytarish, chegaralar va suv resurslari masalalari bo'yicha muzokaralarni tashkil qilishlari lozim edi.

Vashingtonda qabul qilingan shartnoma 1995-yilning oktabr oyida Isroil Knesseti tomonidan ratifikatsiya qilinadi. Falastin muxtoriyati tashkil topishi uchun unda birinchi shart Isroil qo'shinlarining zikr etilgan hududlardan chiqib ketishi lozimligi edi. 1994-yilning fevral oyida Misr prezidenti Husni Muborak vositachiligida Qohirada bo'lib o'tgan Isroil-FOT uchrashuvi Isroil qo'shinlarining bo'lajak avtonomiya hududidan chiqarilishi muddatini 1994-yilning 25-may

⁴⁹ Козлова А. аспирантка кафедры теории и истории М.О.М.Г.Л.У «Эволюция Палестино-Израильских отношений». Internet//goofle.ru 04.03.2012. 11:55

kunigacha deb belgiladi. O'sha yilning 18-mayida Isroil o'z qo'shinlarini G'azo mintaqasi, Yahudiya va Samariyadan olib chiqadi. 1994-yilda G'azo mintaqasi, Yahudiya va Samariya hududida Falastin muhtoriyati tashkil topganligi e'lon qilinadi. 1994-yilning may oyida Is'hoq Rabbini o'zining maxsus xatida Yosir Arofatdan Falastin hududi shakllantirilib bo'linganidan keyin o'ziga "Falastin prezidenti" titulini emas, balki "Falastin ma'muriyati (muxtoriyati) raisi" yoki "FOTning raisi" titulini olishini so'ragan.

1994-yilning avgust oyida Isroil va Falastin muxtoriyati o'rtasida imzolangan navbatdagi shartnomaga binoan muxtoriyatga quyidagi tarmoqlarda mustaqil harakat etish huquqlari beriladi:

- ma'orif va madaniyat
- sog'liqni saqlash
- soliqlar yig'ish
- xalq ta'limi sohasi

Ammo Yosir Arofat hukumati bu shartnomalarning aksariyat bandlarini amalda inkor etdi. Isroil hukumatining asosiy talabi etnik, terroristik harakatlarni oldini olish masalasi FOT tomonidan ijobiy hal etilmadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, 90-yillarning ikkinchi yarmi FOT va Isroil o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashadi. Buning ustiga shuni alohida qayd etish kerakki, muxtoriyat hududida istiqomat qiluvchi falastinliklarning moddiy ahvoli ancha og'irlashadi. Buning sabablaridan biri shuki, Isroil hukumati Isroil korxonalarida ishlovchi falastinliklarga Isroil hududiga kirib kelishiga barcha yo'llarni bekitdi. Bu vaqtda ko'pgina arablarning daromad manbai Isroil korxonalaridan topayotgan pullaridan edi. Endi falastinliklarning ma'lum bir qismi BMT va boy arab davlatlarining moliyaviy yordami bilan yashab turadi. Achinarli tomoni shunda ediki, shu xalq uchun ajratilgan moliyaviy manbaning ma'lum qismi rahbariyat tomonidan ham o'zlashtirilgan.

FOT terroristik harakatlarining kuchayishi Isroil jamiyatida FOT va Isroil o'rtasida imzolangan kelishuvlardan voz kechishni talab qilinishiga sabab bo'ladi. Oqibatda, bu voqelarni kulminatsiyasida Is'hoq Rabbin 1995-yilda Tel-Avivda yahudiy ekstremisti tomonidan otib o'ldiriladi. 1996-yilda Isroil bosh vaziri etib Benyamin Netanyaxu tayinlanadi (1996-1999). Bu arbob "Tamoyillar deklaratsiyasi" ning dushmani sifatida Isroil va FOT o'rtasidagi bundan oldingi barcha shartnomalarni bekor qilish tarafdori bo'lgan. Faqat AQShning siyosiy bosimi tufayli buni amalga oshira olmagan. 1996-yil yanvarda 82 kishidan iborat deputatlar 5 yillik o'tish davrida Falastin qonun chiqaruvchi kengashiga saylanadi.

1996-yilda, navbatdagi yozgi olimpiada o'yinlari boshlanish vaqtida, Xalqaro olimpia qo'mitasi Falastin muxtoriyatini o'z tarkibiga qo'shib oladi.⁵⁰ 1998-yil FIFA (Xalqaro futbol asotsatsiyasi) Falastin milliy terma jamoasini o'z tarkibiga qabul qiladi. 2008-yilda Falastin o'z uyidagi (Falastin muxtoriyati hududida) dastlabki uchrashuvini o'tkazadi. Iordaniyaga qarshi kechgan uchrashuvda 1:1 hisobi qayd etiladi.

1999-yil iyundagi saylovlar natijasida Isroil hokimiyatiga Yoxud Barak keladi. U tupikka kirib qolgan Isroil-Falastin muzokaralarni ancha jonlantiradi. 1999-yil 5-sentabrda Misrning Sharm ash-Sheyx shahrida Falastin-Isroil memorandumi imzolanadi. Unga ko'ra Falastin statusi to'g'risidagi muzokaralarni qayta jonlantirishga kelishib olinadi. Bunday muzokara 2000 yil 12-iyulda Kemp-Devidda (AQSh) B.Klinton vositachiligida Yo.Barak va Yo.Arofat o'rtasida o'tkaziladi.⁵¹ Bu muzokaralarda Isroil va FOT vakillari hududiy masala bo'yicha kelisha olmaydilar.

Yo.Barak Yahudiya, Samariya va G'azo mintaqasidagi 98% hududni ma'muriyatga qaytarib berishni, qolgan 2%ni Isroilning Negev sahrosidan olib berishni aytadi. Arofat bunga rozi bo'lmay, sharqiy Quddusni ham qaytarishni

⁵⁰ Internet//Vikipediya. Свободная энциклопедия

⁵¹ Киселев.К. Марака Рами «Перспективы урегулирования Палестино-Израильского конфликта»// "Азии и Африки" 2005.N 3

talab qiladi. Kemp-Deviddagi uchrashuvda tomonlar Falastin qochoqlari masalasida ham kelisha olmaydilar. Yo.Arofat bu masala yuzasidan barcha qochoqlar o'zlarining tarixiy hududlarga qaytarilishini talab qiladi. Yo.Barak esa 20 yil davomida har yili o'rta hisobda 5 ming falastinlikni qabul qilishini aytadi.

2.3. IKKINCHI INTIFADA (2000-2003).

Goxida “Intifada al Aksa” deb nomlanuvchi **ikkinchi intifada** 2000 yilning sentyabrida boshlandi. Bunga “Likud” blokining raxbari Ariel Sharonning Quddusdagi Al-Aqsa machiti joylashgan xududga borishi sabab bo’ldi. Erishilgan Tinchlik bitimiga ko’ra barcha din vakillarining bu xududga borishi taqiqlanmagan. 2000 yilning oktyabr oyida Isroil shimoldagi arab shaxar va qishloqlarida ommaviy namoyishlar, mitinglar bo’lib o’tdi. Namoyishchilar mashinalarga tosh uloqtirib, shinalarni yoqib yuborishdi. Polisiya vakillari bilan to’qnashuvlar ham bo’lib turdi. Ikkinchi intifada davrida terror xujumlari ham bo’lib turdi. Isroil xukumati bunga keskin javob qaytardi. Ayrim xollarda terror tashkilotlarining a’zolari yo’q qilindi. Intifada 2002 yilning mart oyida o’zining eng yuqori cho’qqisiga chiqdi. Bir qator shaxarlarda yirik terror xujumlari qayd qilindi. 2002 yilning aprel oyidan boshlab intifada susaya boshladi⁵².

2004 yilning noyabrida Parijdagi kasalxonada falastinliklarning raxbari Yosir Arafat vafot etdi. Undan avval Isroil Xarbiy Xavo kuchlari XAMAS raxbari sheyx Axmad Yasin va uning vorisi Rantisini yo’q qildi. Arboblarning saxnadan ketishi bilan intifada butun Falastin xududlarini qamrab olmadi, balki ayrim mintaqalarda tartibsiz davom etdi.

2000-yil 25-sentabrda Isroil bosh vaziri Ariel Sharon sharqiy Quddusdagi Al Aqso masjidiga keladi. Bu falastinliklar tomonidan qattiq qoralanib, u musulmon ziyoratgohini iflos qildi, degan bahona bilan Falastin xalqining Isroilga qarshi ommaviy kurashi (intifada)ga olib keladi. Bu jarayon 2000-2003-yillarni o’z ichiga oladi. To’qnashuvlar oqibatida Yosir Arofatning Ramallohdagi qarorgohi Isroilliklar tomonidan egallanib, uning o’zi uy qamog’iga majbur etildi. Isroil hukumatining qarori bilan 2002-yilda 300 km mo’ljallangan Falastin muxtoriyati chegaralari bo’yicha mudofaa devorini qurishga ahd qilinadi. Bu devorning balandligi 10 m, eni 6,5 m.

⁵² Тўлаганов Ш. Исроил-Фаластин можароси тарихига бир назар. // <http://sharh.uz/munosabat/item/1763-isroil-falastin-mojarosi-urush-intifada>. 18.04.2015 yilda olindi.

Bu davrdagi falastinliklar tomonidan amalga oshirilgan ko'plab harbiy harakatlarda asosan g'arb davlatlari tomonidan terroristik tashkilot deb e'lon qilingan "Xamas" va "Islom jihodi"ning qo'li bor edi.

Falastin va Isroil o'rtasidagi 2001-2004-yillardagi nizolar, o'tgan asrning 90-yillari boshida paydo bo'lgan "Falastin muammosini tinch yo'li bilan hal etish tendensiyalarini" yo'qqa chiqardi.⁵³ Lekin oxirgi yillarda bu muammoni hal etish choralari "Yo'l xaritasi" rejasining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu reja AQSh tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Rossiya, YeI va BMT tomonidan tasdiqlangan. Rejaga ko'ra Falastin muammosini 2005-yilgacha hal etish ko'zda tutilgan. Unga binoan Isroil-Falastin muammosini AQSh, Rossiya, YeI va BMTdan iborat "to'rtlik kelishuvi" ostida bosqichma-bosqich hal etish ko'zda tutilgan. Birinchi bosqichda zo'ravonlik va terroristik harakatlarini yo'q qilish (2003 yilgacha) ko'zda tutilgan. Shuningdek, bu bosqichda, falastinliklarning yashash sharoitini yaxshilash, Falastin davlat institutlarini tashkil qilish, Isroilning 2000-yil 28-sentabrda Falastin hududini okkupatsiya qilgan joylaridan o'z qo'shinlarini olib chiqishi belgilangan. Ikkinchi bosqichda barcha harakatlar vaqtinchalik chegaralar va konstitutsiya asosidagi suverenitetli Falastin davlatini tuzishga qaratiladi (2003-yil iyun-dekabr oylarigacha). Uchinchi bosqichida Falastin-Isroil kelishmovchiligining to'la yakunlanishi va doimiy statuslar bo'yicha kelishilib, nizolarni to'xtatish ko'zda tutilgan. (2004-2005-yillarda). "Yo'l xaritasi" rejasining kamchiliklaridan biri shu ediki, unda Falastin davlatining aniq va oxirgi chegaralari ko'rsatilmagan. Falastin davlatchiligi e'lon qilinganidan keyin tomonlar o'rtasidagi bahs-munozarali masalalar: chegaralar, yahudiy poseleniyalari (manzilgohlar), qochoqlar masalasini hal qilish, Quddusning statusi kabi muammolar keyingi bosqichga surilgan edi. "Yo'l xaritasi" rejasida Falastin avtonomiyasida tub o'zgarishlar bo'lishi aytilgan. Birinchidan, muxtoriyat rahbari terrorchilik harakatlarini to'xtatish, antisemit bo'lmaslik va demokratik saylovlar, iqtisodiy islohatlar o'tkazilishini tashkil qilishi kerak bo'lgan. "Yo'l xaritasi" rejasi

⁵³ Киселев К. Марака Рами. Перспективы урегулирования Палестино-Израильского конфликта. // Азии и Африки 2005. № 3.

falastinliklarning aybi bilan amalga oshmadi. Chunki, Falastin harakatining tarkibida ham bu paytga kelib jiddiy nizolar va kamchiliklar mavjud edi. Isroil hukumati Yo.Arofati siyosiy zaiflikda ayblaydi va uning o'rniga boshqa falastinlik arbobning kelishini, shundagina, Isroil avtonomiya rahbariyati bilan muzokaralarga tayyor bo'lishini bildiradi. Ammo o'sha vaqtda buning sira iloji yo'q ekanligini hamma yaxshi bilardi. Shunday bo'lsa-da, AQShning bevosita aralashuvi natijasida Yo.Arofati o'zining ma'lum vakolatlaridan voz kechishga majbur bo'ldi. AQSh, YeI ,qolaversa, Isroil hukumatlarining bosimi natijasida 2003-yilning 10-martida Falastin Milliy Qonun Chiqaruvchi kengashi Falastin muxtoriyatida yangi bosh vazir lavozimini ta'sis etdi. Bu lavozimga FATHning yana bir yirik arbobi Mahmud Abbas tayinlandi.

Shunday qilib, Falastin muxtoriyatida ikkita qariyb teng huquqlarga ega bo'lgan lavozim joriy etiladi. Bosh vazir uchun quyidagi huquqlar berilgan edi:

- vazirlarni tayinlash
- vazirliklarning budjetini aniqlash
- Falastin muhtoriyatidagi xavfsizlik xizmatini nazorat qilish

Prezident Yosir Arofati esa, asosan, tashqi siyosat, davlatlararo munosabat muammolari bilan shug'ullanadigan bo'ladi. 2003-yilning 29-aprelida AQSh, YeI, Misr va Rossiyaning bosimi natijasida M.Abbos shu lavozimga tayinlanadi. 2004-yil oxirida Yosir Arofati vafot etadi. 2005-yil yanvarda Mahmud Abbas FOT raisi va Falastin muxtoriyati prezidenti bo'ladi.

III bob. ISROIL – FALASTIN MUNOSABATLARI HOZIRGI BOSQICHDA (2003-2013).

3.1.QOCHOQLAR MUAMMOSI.

1948-1949-yillardagi arab-isroil urushi natijasida arab davlatlari uchun mo'ljallangan hududning bir qismi hamda Quddus shahrining g'arbiy qismi Isroil tomonidan bosib olingan(6,7 ming kv km). Isroil BMT qaroriga muvofiq Falastin arab davlatiga o'tishi kerak bo'lgan hududning 60%ini bosib olgan. Tashkil etilib ulgurilmagan Falastin arab davlatining sharqiy qismi va sharqiy Quddus (5,5 ming kv km) Iordaniya, G'azo sektori Misr nazorati ostiga o'tadi.

Falastin urushi oqibatida Isroil o'zi bosib olgan hududlardan Falastin arab xalqini haydab yuborib, qochoqlar muammosini keltirib chiqaradi.

Falastin qochoqlarining ko'pchiligi Transiordaniya va G'azo sektoriga borib joylashadi, bir necha yuz mingi Livan va Suriyaga boradi, yana bir qanchasi esa Iroq hududidan boshpana topadi.

XX asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan davrda (1967-yilgi "olti kunlik urush" gacha) Falastin arab aholisi ikki qismga bo'linib yashagan. Birinchi qismi – 300-400 ming odam Isroil okkupatsiya qilgan hududa joylashib qolavergan, ikkinchi qismi esa bir millionga yaqini Isroil bilan qo'shni arab davlatlaridagi qochoqlar uchun maxsus tashkil qilingan lagerlarda yashaganlar.⁵⁴

Falastin arablarining o'z hududini tashlab chiqishiga haqiqatda nima sabab bo'lgan edi?. Isroil rahbarlari bu boradagi fikrlaricha, go'yoki yuz ming falastinlik ona yurtini arab davlatlari boshliqlarining chaqiriqlari natijasida o'z ixtiyorari bilan tark etgan emish. Ingliz publististi Erskin Childers Bi-Bi-Si radiosi arxividagi arab radiostansiyasi tomonidan Falastin masalasida tayyorlangan eshitirishlarni eshitib, bu borada arab davlatlari rahbarlarining hech qanday da'vatlari bo'lmagan degan xulosani beradi.⁵⁵

⁵⁴.Примаков Е. М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.14.

⁵⁵.Примаков Е. М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.13.

Falastinliklar immigratsiyasi sionistlar siyosati oqibatida yuz bergan. Ingliz tarixchisi Arnold Taynbi jiddiy mulohaza yuritib: “Falastin arablari o’z ixtiyorlari yoki arab davlatlari rahbarlarining da’vati bilan ona yurtini tashlab ketmagan. Ular kuchli qo’rquv o’lim tufayli ketib qolgan” – deb yozadi.

“Olti kunlik urush” (1967-yil)dan keyin arab-falastinliklarning ahvoli yanada og’irlashadi. Yuz minglab yangi qochoqlar o’z uyini tashlab ketishga majbur bo’ldi. Endi Iordan daryosining g’arbiy qirg’og’i, butun Quddus (Iyerusalim), G’azo sektori, Gollan tepaliklari, Sinay yarim oroli – Isroil tomonidan egallandi. Falastinlik ko’pchilik aholi ikki karra qochoqqa aylandilar: ular birinchi arab-isroil urushi (1948-1949) davrida ega bo’lgan lagerlarini yo’qotdilar, endi ular Iordan daryosining sharqiy qirg’oq hududiga, bir qanchasi Livan va Iroq hududiga ko’chib borishga majbur bo’ldilar. Arab Falastinliklarining ommaviy quvg’ini 1968-yilgacha, Iordaniya qiroli Xusaynning Iordan daryosi orqali o’tadigan ko’prikn yopib qo’yguncha davom etdi. BMT qoshida tashkil etilgan falastinlik qochoqlar va ishchilar huquqini himoya qiluvchi UNRVA tashkiloti 1971-yilga kelib 1 million 425 ming qochoqni ro’yxatga olgan. Ular hududiy jihatdan quyidagicha taqsimlagan: 500 mingdan ko’prog’i Iordaniyaning sharqida, buning ustiga 200 mingdan ko’prog’i bu yerga Isroil agressiyasi natijasida g’arbiy qirg’oqdan va G’azo sektoridan kelgan; 600 ming atrofidagi Falastin arab aholisi Isroil okkupatsiya qilgan Iordan daryosining g’arbiy qirg’og’ida va G’azo sektorida yashashni davom ettirishgan (G’azo sektorida 300 ming); 340 ming atrofidagi qochoqlar Suriya va Livan hududida edi.⁵⁶

Falastinlik qochoqlar yillar davomida palatkali lagerlarda yashab, elementar maishiy ehtiyojlardan mahrum bo’lgan. Arab qochoqlarining aksariyati BMTning Yaqin Sharqdagi agentligi tomonidan ajratilgan oziq-ovqat hisobiga yashagan. Shuni aytish kerakki, bu paytga kelib FOT rahbariyati va uning a’zolari endi Falastin muammosini hal qilishda faqat ADLga a’zo davlatlar kuch-qudrati va muvaffaqiyatga ishonish noto’griligini anglab yetadilar. Ayniqsa, 1967-yildagi

⁵⁶ Примаков Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.16.

mag'lubiyatdan ("Olti kunlik urush") keyin Falastin rahbariyati faqat o'zlarining kuchlariga ishonadigan bo'ldi. Shu sababdan FOT tarkibida bir qator harbiy-siyosiy guruhlar tashkil etiladi. Ulardan Falastinni ozod qilish xalq fronti 1967-yil; Falastin demokratik-ozodlik fronti 1968-yil tuziladi. Shunisi ahamiyatliki, bu tashkilotlar asosan ADLga a'zo bo'lgan boshqa arab mamlakatlaridagi siyosiy partiyalar ba'zasi asosida tashkil etilgan. Masalan, Falastinni ozod qilish xalq fronti Suriyadagi arab milliy harakati partiyasi bazasi asosida shakllantirilgan.⁵⁷

Yaqin Sharq: tinchlik yo'li naqadar uzoq. Yarim asrdan ziyodroq vaqt davomida Isroil —Falastin muammosi o'nlab xalqaro anjumanlarda muhokama qilindi, bunga bag'ishlangan qator uchrashuvlar tashkil etildi. Sayyoramizning eng olovli nuqtasi bo'lib qolgan hududda tinchlik o'rnatish uchun dunyo siyosatining nomi chiqqan arboblari, kazo-kazo amaldorlari harakat qilib ko'rishdi. Lekin barcha urinishlar besamar bo'lib chiqaverdi. Dunyo ahli Falastin-Isroil mojarosiga ko'nikib qolgan va ko'p-da e'tibor qaratmay qo'ygan bir davrda Amerikaning Annapolis shahrida o'tgan hafta ushbu muammoga bag'ishlangan xalqaro anjuman tashkil etildi.

To'g'ri, xalqaro mashvaratda mustaqil Falastin davlatining chegarasi, qochoqlar taqdiri, Quddus shahrining maqomi kabi muhim masalalarga to'la aniqlik kiritilmadi. Lekin baribir qirqdan oshiq davlat vakillari ishtirokida uyushtirilgan sammit tinchlik orzusida yashayotgan hudud aholisi ko'nglida umid chirog'ini yoqqanday bo'ldi.

Annapolis anjumanining muhim muvaffaqiyatlaridan biri shundaki, ko'pdan buyon yuz ko'rmas bo'lib yurgan Falastin va Isroil rahbarlari yana bir marotaba tinchlik masalasida o'zaro fikrlashish imkoniga ega bo'lishdi. Shu bois, bir-biriga dushmanchilik kayfiyatida yurgan tomonlarning diplomatiya yuzasidan bo'lsa-da muloqotga kirishgani e'tiborga loyiq hodisa o'laroq qabul qilindi.

⁵⁷.Примаков Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта. Москва 1978., с.39.

Sammit yakunida Falastin rahbari Mahmud Abbos hamda Isroil bosh vaziri Exud Olmert tomonidan berilgan qo'shma bayonotda hududda tinchlikni o'rnatish yo'lidagi harakat yana qayta boshlangani e'lon qilindi. Kelishuvga ko'ra, ikki tomondan ham maxsus muzokara guruhlar tuziladi. Guruhlar har oyda ikki marotaba mavjud ziddiyat va kelishmovchiliklarni hal etish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazadi. Anjuman doirasida qabul qilingan o'ziga xos sulh bitimida tomonlar tinchlik bo'yicha amaliy tadbirlarni 2008 yilning so'ngigacha tugatishi belgilangan.

Isroilning davlat sifatida mavjud bo'lishiga keskin qarshilik ko'rsatib kelayotgan Suriya hukumati hamda qo'shni Saudiya Arabistoni podshohligi ham bu galgi sammitda o'z vakili bilan ishtirok etdi. Mintaqada o'z o'rniga ega bo'lgan ikki mamlakatning tinchlik muzokaralariga qo'shilishi ushbu uchrashuvning ijobiy samaralaridan biri deyish mumkin.

Darvoqe, Annapolis yig'inida mintaqa davlatlaridan Eron ishtirok etmagan. Rasmiy Tehron hozirga qadar yahudiy davlati masalasida muvofiqlashtiruvchi pozitsiyasi bilan tilga tushgan. Ushbu siyosatga sodiq qolgan prezident Mahmud Ahmajinajod Isroil-Falastin muammosiga bag'ishlangan anjuman hech qanday amaliy samara bermasligini ta'kidlagan.

Uchrashuv chog'ida allaqachon unutilib ketayozgan yo'l xaritasi rejasi ham esga olindi. Arab-Isroil ixtilofini bartaraf etishga qaratilgan rejani amalga oshirish uchun nazorat guruhi tuzish zarurligi ta'kidlandi. Yo'l xaritasi rejasi 2003 yili Yaqin Sharq muammosini hal etish bo'yicha to'rtlik – Rossiya, AQSh, Yevropa Ittifoqi hamda BMT tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ushbu rejada Falastin va Isroil tomoni murosa va kelishuv asosida ziddiyatlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishi ko'zda tutilgan. Lekin shu paytga qadar qabul qilinib, ijrosiz qolgan hujjatlar kabi ushbu reja ham amalga oshmadi. Yo'l xaritasi rejasiga ko'ra 2005 yilga qadar barcha ziddiyatlar hal etilib, Falastin davlati tashkil topmog'i kerak edi...

2000 yili yana o'sha Kemp-Devid qarorgohida Falastin-Isroil rahbarlari (Yosir Arafot va Yoxud Barak) o'zaro til topishishga urinib ko'rishdi. Tomonlar

ma'lum kelishuvga erishganday bo'lib turgan bir paytda qurolli to'qnashuvlarning avj olishi barcha muzokaralarni puchga chiqardi. Bu orada Isroil hukumat tepasiga kelgan Ariel Sharon xalqaro hamjamiyatning qarshiligiga ham qaramasdan Iordan daryosining G'arbiy qirg'og'ida 640 km.lik mudofaa devori qurishga kirishdi. Shu tariqa Isroil-Falastin munosabatlari yana boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Har ikki tomon rahbarlarining achchiqni achchiq kesar qabilida yuritgan siyosati oqibatida tinchlik yo'lidagi barcha bitim va shartnomalar ham bekor bo'ldi.

Ochig'ini aytganda, o'tgan hafta qabul qilingan bayonotlar hali muammoning yechilganidan dalolat bermaydi. Bir tomondan, bitimlarni bugun qabul qilib, ertaga buzishga odatlangan davlat bu gal ham eski siyosatini davom ettirmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Ikkinchi tomondan, Falastin tomoni ham muzokaralarda tilga olingan shartlarni to'la bajara olmasligi mumkin. Nega deganda, ayni paytda mo'j'jazgina Falastin hududida qo'shhokimiyatchilik hukm suryapti. Falastin rahbari deb yuritilayotgan Mahmud Abbos faqatgina Iordan daryosining G'arbiy qirg'og'ini idora etyapti. Falastinning asosiy hududi G'azo sektori esa muxtoriyat hududidagi yana bir yetakchi siyosiy guruh XAMAS nazoratida. Bugun G'azo o'zining alohida hukumati, armiyasi va boshqaruv idoralariga ega. Annapolisdagi yig'inda ishtirok etmagan XAMAS tashkiloti rahbari Ismoil Xoniya avval-boshdanoq u yerda qabul qilingan qarorlarni tan olmasligini bildirgan. Falastinning o'zida parokandalik va guruhbozlik hukm surayotgan sharoitda esa ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish amri mahol.

Sobirjon Yoqubov."Hurriyat" dan olindi.

3.2. ISROIL MANZILGOHLARI MASALASI.

3.3. QUDDUS (AL QUDS) MAQOMI ISROILLIKLAR VA FALASTIN ARABLARI NIGOHIDA.

Ikkinchi bobda ta'kidlanganidek, BMTning 1947-yil 29-noyabridagi 181(2) rezolyutsiyasi qabul qilinganidan so'ng arab davlatlari ligasi siyosiy qo'mitasi Falastinning bo'linishiga yo'l qo'ymaslik uchun bir qancha choralarni amalga oshirdi. Shulardan bii sifatida ADL rahnomaligida Falastin Ozodlik Armiyasining tashkil topganligini aytish mumkin. Bu armiya arab davlatlari ligasi tarkibida bo'lgan mamlakatlarning ko'ngillaridan tuzilgan.

Ammo, 1948-1949-yillardagi arab-isroil urushi natijasida arab davlatlari yengiladi. Bu mag'lubiyat sabablarini o'rgangan arab davlatlari rahbarlari, xususan, falastinlik advokat Muso al-Alamiy quyidagi xulosaga keladi:

- urushda qatnashgan arab davlatlari orasida birlik yo'q bo'lgan;
- Isroil bu urushga "Milliy mustaqillik urushi" sifatida qarab jipslik, jasorat va intizom namunasini ko'rsatib bera olgan;
- Arablar bu urushni "An nakba" ("Fojeali urush") deb baholadi;
- Arab davlatlarining zaif tomoni – jangga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, umumiy yagona qo'mondonlikning mavjud bo'lmaganligi, yagona strategiya bo'lmaganligi;
- Arab qo'shinlari eski, yaroqsiz, raqiblar esa zamonaviy qurol-aslahalar bilan qurollanganligi;
- Jangda turli arab davlatlarining maqsadlari aralashib ketishi arab davlatlarining mag'lubiyatining asosiy sabablari sifatida baholandi.⁵⁸

Mazkur urush natijasida 1949-yil so'ngiga kelib, Falastindagi 500 ga yaqin qishloq, shahar va turar joylar vayron qilingani ma'lum bo'lgan.⁵⁹

⁵⁸ A. Qurbonov "Arab-Isroil urushlari tahlilida Falastin muammosining globallashuv jarayoni"Doklad. Yosh Sharqshunoslarning Akademik Ubaydullo Karimov Nomidagi VIII Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Tezislari. T.2010

⁵⁹ A. Qurbonov "Arab-Isroil urushlari tahlilida Falastin muammosining globallashuv jarayoni"Doklad. Yosh Sharqshunoslarning Akademik Ubaydullo Karimov Nomidagi VIII Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Tezislari. T.2010

Falastin (arab-isroil) urushida mag'lubiyatga uchragan arab davlatlari endilikdagi harakatlarini ijobiylashtirishga xizmat qiladigan bir qancha choralarni ko'radilar. 1949-yil 30-oktabrda ADL siyosiy qo'mitasi arab davlatlari kollektiv xavfsizlik shartnomasini ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qiladi. 1950-yil 13-aprelida arab davlatlari kollektiv xavfsizligi Paktining loyihasi ADL kengashi tomonidan tasdiqlandi. 1950-yil 17-iyunda Pakt kuchga kirdi. Ushbu shartnomada Misr, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni va Yaman rahbarlarining imzolari chekilgan. Arab davlatlarining aksariyati Isroil bilan bo'ladigan munosabatlarda tan olmaslik tamoyilini ilgari surmoqchi bo'ldilar. Arablar va yahudiylar o'rtasida tinchlik bitimi imzolash taqiqlandi. 1950-yil 1-aprelda ADL kengashining yig'ilishida rezolyutsiyada har bir arab davlatiga Isroil bilan muzokaralar olib borish, sulh tuzish, siyosiy-iqtisodiy va harbiy bitimda bo'lish qat'iyon man etilgan. Qaysidir arab davlati bu rezolyutsiyani inkor etadigan bo'lsa, u darhol liga nizomining 18-moddasiga muvofiq ADL tarkibidan chiqarilishi shart bo'lgan. 1950-yil 13-aprelida ADL kengashining navbatdagi rezolyutsiyasi qabul qilinadi. Unda Isroil bilan qandaydir munosabatlar o'rnatmoqchi bo'lgan arab davlatiga nisbatan qo'shimcha qat'iy choralar ko'rish nazarda tutilgan. O'sha choralar ichida bunday arab davlati bilan siyosiy va konsullik munosabatlarini to'xtatish, savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni uzib tashlashi ham nazarda tutilgan.

Arab davlatlari ligasi o'zining mavjudligidan boshlab to hozirgi kunga qadar bo'lib o'tgan 30 dan ziyod sammitlarining o'ndan ortig'ida Falastin muammosi masalasi ko'rib chiqiladi.⁶⁰ Bu borada, ayniqsa, ADL orasida yetakchi o'rinda turuvchi Misr davlatining mavqei ahamiyatli. Misrning Falastin davlatchiligini tashkil etish muammosi bo'yicha tutgan pozitsiyasining o'ziga xos tomoni shunda ediki, bu jarayonda turli Misr prezidentlari o'zlarining bir-biridan keskin farqlanuvchi qarashlarini ko'rsatdilar. Jamol Abdul Nosir (1956-1970) prezidentlik davrida bu masalada qat'iy turib Falastin arab xalqi o'z davlatini tuzishi va Isroilni davlat sifatida tan olmaslik hamda uni butunlay yo'q qilish taraftori edi. O'z navbatida J.A.Nosir bu rejalarni amalga oshirishda SSSR yordamiga umid

⁶⁰ www.arab-league.org

bog'lagan bo'lsa, keyingi prezident Anvar Sadat (1971-1981) ning pozitsiyasi liberal xarakterga ega bo'lib, vaziyatga moslashuvchan siyosatini namoyon etdi. Dastlab, u 1973-yil oktabr oyida Isroilga qarshi harbiy harakatlarni olib borib, o'zini antiisroil siyosatchi qilib ko'rsatgan bo'lsa-da, lekin bu urushdagi mag'lubiyat uning o'z maqsadlarini o'zgartirishiga majbur etadi. Endi u Falastin muammosini ikkinchi darajali masala sifatida baholab, asosiy e'tiborni urushda boy berilgan Misr hududlarini qaytarib olishga qaratadi va bu borada AQSh yordamiga umid bog'laydi. Bu haqda keyinroq.

Falastinlik arablarning o'zlari ham Falastin muammosini hal qilishda jon-jahdlari bilan harakat qilishadi. Falastin arab xalqi o'zining mustaqil va ozod vatanini barpo etishdagi har qanday kurashga tayyorligini ko'rsata oldi. Dastlabki Falastin qarshilik harakatining tashkilotlari 1947-1948-yillarda paydo bo'lgan. Ular "Muqaddas kurash", "Qaytib borish qahramonlari" nomini olgan. XX asr 50-yillarining o'rtalarida Falastin partizan guruhlarining dastlabki dastalari paydo bo'lgan. 1952-yilda Isroil bosib olgan hududlarda (bu hududda 300 mingdan ziyod arablar yashar edilar) yozuvchilar ligasi o'z faoliyatini boshlab yuboradi. Ushbu tashkilot vatanparvar ziyolilardan iborat bo'lib, u Isroildagi arab ozchiligining manfaatini himoya qilgan. Yozuvchilar uyushmasi asosida 1957-yilda Xalq demokratik fronti tashkil etiladi. "Al-Ard" gazetası tashkilotning matbuot organi edi. Gazeta sahifalarida vatanparvarlar Isroilda istiqomat qiluvchi arablarning inson huquqlari va demokratik erkinliklari poymol etilishiga qarshi maqolalar chop etganlar. Haqiqatdan ham, Isroil okkupatsiya qilgan joylarda Falastin arablari oddiy huquq va erkinliklardan mahrum edi. Falastin arablari okkupatsion tartibiga to'la rioya qilgan holda yashar, joydan-joyga qo'zg'alishi cheklanar, ular politsiya mahkamasida muntazam ravishda tekshirishdan o'tishardi. Agarda arab aholi Isroil davlatiga xavf-xatar keltiradigan bo'lsa, unda ularning mulki musodara qilinib, o'zlari esa turar joylaridan haydalgan. 1958-yilda Isroil hukumati xalq demokratik frontining faoliyatini taqiqlab qo'ydi.

1956-yilda G'azo sektorida "Falastin milliy ozodlik harakati" vujudga keldi. Tashkilot a'zolari BMT yoki arab davlatlari yordamida Falastin muammosini hal

qilib bo'lmaydi, degan xulosaga borgan. Shuning uchun ham "Falastin milliy ozodlik harakati"ning rahbariyati Falastin muammosi Falastin arablarining qo'lida bo'lishi kerak deb ta'kidlagan. 1958-yilda Livanda tashkilotning axborot byuleteni nashr etildi. "Bizning Falastin" deb nomlangan axborot byutelenida "Falastin milliy ozodlik harakati"ning dasturi chop etiladi. Dasturda falastinlik arablar qurolli kurashga da'vat qilinadi.

1958-yilda tashkilotning rasmiy va to'liq nomi FATH deb ataldi, ya'ni "Falastin milliy ozodlik harakati". Bu tashkilot Isroil hududiga dastlabki harbiy amaliyotini 1974-yil 31-dekabrda amalga oshirgan.⁶¹ 1962-yilda "Al-Asifa" ("Bo'ron") deb atalmish FATHning yirik harbiy dastasi ham tuziladi. 1965-yil 1-yanvarda "Al-Asifa" isroilliklarga qarshi dastlabki harbiy operatsiyasini amalga oshirdi. Shuning uchun ham 1965-yil 1-yanvari Falastin inqilobining tug'ilgan kuni hisoblanadi.

ADLga a'zo davlatlarning Falastin muammosini ijobiy hal qilishga bo'lgan harakatlari dastlabki davrlardan kutilgan samarani bermadi. 1956-yilgi Suvash inqirozi va Misrning "Uchlik agressiyasi"ga qarshi kurashi, Jamol Abdul Nosirni Falastin muammosidan chalg'ishiga majbur qildi.

1956-yil 26-iyulda Aleksandriyadagi ommaviy mitingda J.A.Nosir Suvaysh kanalining natsionalizatsiya qilinganligi haqidagi dekretni e'lon qiladi.⁶² Nosirning bu bayonoti g'arb davlatlarini sarosimaga tushirib qo'ydi. Chunki ular bu kanal orqali o'tadigan savdo aloqalaridan juda katta foyda olayotgan edilar. 1956-yil 5-13-oktabrda Suvaysh kanali masalasi BMTda ko'rib chiqildi va XK qarori bilan Suvaysh kanali "Misr suvereniteti" deb e'lon qilindi. Endi Misrga qarshi Angliya, Fransiya va Isroil "Uchlik agressiyasi" ni uyushtirdilar. 1956-yil 29-oktabrdan 5-noyabrgacha "Suvaysh inqirozi" bo'yicha harbiy harakatlar olib borildi. Bu harbiy harakatlarning to'xtatilishida BMT va SSSRning xizmatlari o'rinlidir. 1956-yil 22-dekabrda Angliya va Fransiya Suvaysh kanali zonasi hududidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketadi. 1957-yil mart oyida Isroil ham o'z qo'shinlarini olib chiqadi.

⁶¹ Примаков.Е.М. Ко'rsatilgan adabiyot. стр. 16

⁶² Новейшая история арабских стран (1917-1966) М.1967 стр 415

“Suvaysh inqirozi” ning Falastin muammosi bilan bog’liq tomoni shunda ediki, bu inqiroz vaqtida, ya’ni XX asrning 50-yillari davomida ADL tarkibida bo’lgan arab davlatlari asosiy e’tiborlarini Falastin muammosini bartafar etishga emas, balki “Uchlik agressiyasi”ga qarshi kurashishga majbur etdi.

Falastin muammosini hal etish masalasi 1964-yil 13-17-yanvarda Qohirada bo’lib o’tgan arab davlatlari boshliqlarining kengashlarida ko’rib chiqildi. Unda endigina vujudga kelgan “Falastin birligi” tashkilotiga “Falastin xalqining vakili” maqomi berilsin degan qaror qabul qilindi. Ayni paytda “Falastin birligi” siyosiy va harbiy funksiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot bo’lib qoldi. 1964-yilning 28-mayida Quddus shahrining arablar yashaydigan qismida Falastin milliy kengashining I sessiyasi bo’lib o’tdi. Sessiyada Iordaniya, Suriya, Livan, Iroq Fors qo’ltig’idagi amirliklar va G’azo mintaqasida yashovchi falastinlik arablarning vakillari qatnashdi. Falastin milliy kengashi Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT)ning barpo etilganini tasdiqladi. FOT ning asosiy maqsadi demokratik va dunyoviy Falastin davlatini tuzishdir deb belgilandi.⁶³ FOTning asosiy maskani o’sha davrda Livanda joylashgan edi. Shuningdek bu kengashda milliy xartiya tasdiqlangani to’g’risida qaror qabul qilindi. Xartiya – Falastin Ozodlik Tashkilotining dasturi edi.

Xartiyaning 4-moddasi barcha falastinliklarni FOT a’zolari deb e’lon qilgan. Falastin xalqining ozodlik harakatiga yagona javobgar tashkilot bu Falastin Ozodlik Tashkiloti deb ta’kidlangan. Xartiyaning 26-moddasi Falastin milliy kengashi, Falastin Ozodlik Armiyasi barpo etish haqida ham qaror qabul qildi. 1964-yil 5-11-sentabrida Aleksandriyada bo’lib o’tgan ADLning navbatdagi sammitida FOT “Falastin jamiyatining poydevori” sifatida rasman tan oldi. Falastin ozodlik tashkiloti arab davlatlari ligasi kengashlarida ishtirok etadigan bo’ldi. 1965-yil davomida Falastin Ozodlik Armiyasi tarkibida 12 ming kishidan iborat 3 ta harbiy brigada tuzildi.

⁶³ “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi” 9-jild. T. 2005. 178-bet

Shu o'rinda Yosir Arofat haqida ikki og'iz: Muhammad Abdul Rahmon Abdul Rauf Qudba al Xusayniy - 1929-yilning 24-avgustida Qohirada (ba'zi manbalarda Quddusda) tug'ildi. Uning otasi tadbirkor-sarmoyador kishi edi, onasi esa Arofat 4 yoshligida vafot etadi.⁶⁴

Birinchi arab-isroil urushi (1948-1949) davrida Falastin harbiy kuchlari bosh qo'mondoni bo'lgan Abdul Qodir al Xusayniy bilan aloqador deb hisoblamasaliklarini istagan Abdul Rauf, Qohiradagi universitetda o'qib yurgan kezarida, o'z ismini Yosir Arofat deb o'zgartiradi. 1956-yilda "Uchlik agressiyasi" paytida Yosir Arofat Misr armiyasi safida isroilliklarga qarshi jangda ishtirok etgan falastinliklarga qo'mondonlik qilgan. 1958-yilda Quvaytda Falastin milliy ozodlik harakati tashkilotiga rahbarlik qiladi va unga FATH nomini beradi. (FATH-"Harakatu tahririy Falastinning teskari tomondan qisqartma aytilishi). 1969-yil fevralida Yosir Arofat FOT Ijroiya qo'mitasining raisi etib saylandi.

1970-yil 28-sentabrda Misr prezidenti J.A.Nosir vafot etdi. 1970-yil 15-oktabrda o'tkazilgan referendumda Anvar Sadat yangi president etib saylanadi.⁶⁵ Ushbu bobning avvalida ta'kidlab o'tganimizdek, ADL tarkibidagi eng yetakchi davlatlardan biri hisoblangan Misrda prezident almashinuvi Falastin muammosini bartaraf etishdagi ADL davlatlarning yagona strategiyasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, A.Sadat Falastin muammosini Misr davlati shaxsiy muammosi oldida "qo'shimcha bir bosh og'rig'i" deb hisoblar, shu sababli bu muammoni ikkinchi darajali deb qabul qiladi. Tashqi siyosatda A.Sadat o'zini J.A.Nosirning ishlarini davomchisi deb ko'rsatishga harakat qilgan. Biroq amalda bunday bo'lmadi. A.Sadat Misrning tashqi siyosiy partnyorlarini (sheriklarini) almashtirib, ko'proq G'arb davlatlari va AQSh bilan aloqalarni yo'lga qo'yish tarafdori bo'lgan. J.A.Nosir tashqi siyosiy yo'nalishda SSSRga tayanib ish yuritgan bo'lsa, A.Sadat AQSh prezidenti R.Nikson bilan norasmiy aloqalar o'rnatdi. Buning sababi, AQShning Yaqin Sharqdagi inqirozni bartaraf qiladigan qurbiga ishonishda yotardi.

⁶⁴ Internet//Vikipediya.Свободная энциклопэдия

⁶⁵ Князев А.Г. Египет после Насера (1970-1980).М.1980 стр 153

2006-yil Falastin muxtoriyatidagi parlament saylovlarida “Xamas” guruhi g'alaba qozonadi. O'z o'rnida bu guruh tarixi haqida qisqacha: Xamas – Fundamental Falastin harakati. Bu harakat dasturida yagona Falastin davlati Iordan daryosidan tortib O'rta Yer dengizigacha (boshqacha qilib aytganda Isroil davlatining o'rnida ham) bo'lishi kerak deyiladi. Xamas – harakat al mukarrama al islomiya – islom qarshilik harakati, 1987-yil 14-dekabrida G'azo shahrida Shayx Ahmad Yosin tomonidan tashkil etilgan. Bu tashkilot asosan 1 million 400 ming aholi yashaydigan G'azo sektorida o'z faoliyatini olib boradi. Bu guruhning kurash taktikasi Isroil bilan kuch ishlatish tamoyili asosida bu davlatni yo'q qilishdir. Shayx Ahmad Yosin 2004-yil 22-martida Isroil harbiyalari tomonidan o'ldiriladi. Hozirgi davrda Xamas siyosiy byurosi raisi Holid Mashal. Lekin bu tashkilotning haqiqiy yetakchisi Ismoil Xoniya hisoblanadi. Xamas harakatining ideologiyasi (mafkurasi) ga binoan har qanday sionist Falastinning dushmani sifatida baholanadi. Falastin davlati barpo etilgandan so'ng bu zamin Islom dunyosining markazi bo'lish kerak edi. Xamas tashkiloti moliyaviy jihatdan radikal islomchilar tomonidan ta'minlanadi.

Xamaschilarning 2006-yildagi saylovlarda g'alaba qozonishi asosida ularning, ayniqsa, G'azo mintaqasi hududida aholiga tub ijtimoiy yordam berganligi yotadi. Bu borada FATH ko'p xatoliklarga yo'l qo'ydi. Gap shundaki, dunyo mamlakatlari tomonidan Falastin aholisi uchun ajratilgan moliyaviy yordam oddiy falastinliklarga borib yetmadi. Boshqacha qilib aytganda FATH yetakchilari orasida korrupsiya bor edi. Korrupsiya bilan kurash olib borish xamaschilarga muvaffaqiyat keltiradi.

Saylov natijalari e'lon qilinganidan so'ng xamaschilarning ekstremistlari Ramalloh, Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'idagi FATHning barcha

tarafdorlarini parlament binosidan haydab chiqaradilar va ushbu bino tepasiga islomning yashil bayrog'ini o'rnatadi. FATH hukumati iste'foga chiqadi. Falastin ma'muriyatida qo'shhokimiyatchilik yuzaga keladi. Bir vaqtda Ramalloh, Nablus kabi yirik shaharlar joylashgan Iordan darysining g'arbiy qirg'og'ida prezident (muxtoriyat raisi) M.Abbos hukmronlik qiladi. G'azo hududida esa bosh vazir Ismoil Xoniya yetakchiligidagi Xamas nazorati o'rnatiladi.⁶⁶

Ismoil Xoniya 2006-yilning 25-fevralida hukumatning yangi bayonotini tanishtiradi. AQShning "Vashington post" gazetasida Ismoil Xoniya quyidagi fikrlarni bildirgan: "Ma'muriyat shu vaqtgacha Isroil va muhtoriyat o'rtasidagi barcha shartnomalarni qayta ko'rib chiqadi va reviziya qiladi". Bu bilan Xoniya hukumati "Tamoyillar deklaratsiyasi" va boshqa barcha kelishuvlarni bekor qilib, Isroilga qarshi kuch ishlatish siyosatini e'lon qilgandek bo'ldi. Shunday bir vaziyatda, ma'muriyat ranbari Mahmud Abbas prezidentlik vakolatidan foydalanib, 2006-yilning kuzida Ismoil Xoniya hukumatini qonundan tashqari deb e'lon qiladi va bosh vazir vakolatini o'z qo'lida mujassamlashtirib, vaqtincha prezident nafaqat siyosiy masalalarni, balki ichki siyosiy-iqtisodiy masalalarni ham o'z qo'lga oladi. Lekin Mahmud Abbasning qabul qilgan bu qarori muxtoriyat tarkibidan G'azo mintaqasini ajratib qo'ygandek bo'ldi. Chunki Xamas hamon G'azo mintaqasida yetakchi tashkilot edi. G'azo sektoridagi FATHning eng ishongan tog'i - xavfsizlik xizmati idorasi xamaschilar tomonidan egallanib, bino tepasiga Xamas bayrog'i o'rnatiladi. Ayni paytda Xamas harakati G'azo sektoridan M.Abbos tarafdorlarini butunlay haydab chiqaradi va bu hududda o'z hokimiyatini o'rnatadi. Xamas davlat ichidagi davlatga asos soladi. Bu yagona Falastin davlatining shakllanishiga hamon o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

2011-yilda ADL tarkibidagi Livan BMTda yana bir marotaba Falastin davlatining tashkil etilishini himoya qildi. Livanning BMTdagi delegatsiyasi boshlig'i Navof Salom mamlakatning "Nahor" nomli ro'znomasiga bergan intervyusida Xavfsizlik Kengashida raislik qilayotganligini nazarga olgan holda,

⁶⁶ Sobirjon Yoqubov "Falastin: Kechuvda otlar almashtirilmaydi" <http://hurriyat.uz>. Hurriyat gazetasi 17-iyul 2007-yil 23⁵⁵

rasmiy Beyrut, imkoni boricha, falastinliklarning mustaqil Falastin davlatini tashkil etish uchun qilayotgan harakatlarini himoya qilishini aytdi.

Bu xabarga ko'ra, Livan prezidenti Mishel Sulaymon ham BMTda nutq so'zlashi kutilmoqda. Shuningdek, Falastin muxtoriyati 2011-yilning 20-sentabr kuni mustaqil Falastin davlatini tashkil erish haqidagi talabni BMTga yuborishni rejalashtiradi.⁶⁷

Hozirgi kunda Falastin ma'muriyati prezidenti Mahmud Abbosdir. Bosh vazir esa Salyam Fayyad, parlament spikeri Abdul Aziz Dueyk. Hozirgi Falastin ma'muriyatining maydoni 6020 km kv, aholisi 4 milliondan ziyod, pul birligi – yangi Isroil shekeli. Internetdagi domeni ps. Xalqaro telefon kodi +970.

⁶⁷ Internet <http://uzbek.trib.ir/Cyrillic/print/4358.html> 28.03.2012 12⁵²

XULOSA

Ushbu malakaviy bitiruv ishi birinchi bobining xulosasi o'rnida shuni aytish kerakki, zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro tashkilotlarning o'rni kattadir.

Arab dunyosida, Yaqin va O'rta Sharqda bunday tashkilotlardan biri Arab davlatlari ligasi hisoblanadi. Bu Osiyo va Afrikadagi mustaqillikka erishgan davlatlarda faoliyat yurituvchi ilk mintaqaviy tashkilotdir.

1945-yilda uning paydo bo'lishi arab dunyosida xalqaro munosabatlarning muhim ahamiyatga ega bo'lishiga olib keldi. Hatto liga dunyo maydoniga to'laligicha chiqa oldi. Arab davlatlari ligasi va uning a'zolari boshqa arab davlatlarining ozodlik va milliy mustaqillikka erishishlarida muhim rol o'ynadilar. Liga arab davlatlarini imperialistik rejalarga qarshi kurashga birlashtira oldi va birlashtira olayapti.

“Falastin muammosining kelib chiqish tarixi va undagi asosiy masalalar” deb nomlangan ikkinchi bobimizga xulosa qiladigan bo'lsak, darhaqiqat, arab davlatlari tarixchilari ta'kidlaganlaridek, bu muammoning paydo bo'lishiga 1917-yilgi “Balfur deklaratsiyasi sabab bo'lganligi rost. Ammo shuni unutmaslik kerakki, Sionizm siyosiy-mafkuraviy harakati paydo bo'lib shakllanmaganda, bizning nazarmizda, “Balfur deklaratsiyasi” ni joriy etish uchun asos bo'lmas edi. Shuning uchun, qaysidir ma'noda, sionizm siyosiy – mafkuraviy harakati va undagi “Falastin zaminida yahudiy milliy davlatini tuzish” dasturi muammoning tub ildizi bo'lib maydonga chiqdi, deb hisoblash noto'g'ri bo'lmasa kerak.

BMT ning Falastinni bo'lish to'g'risidagi 181-sonli rezolyutsiyasi ham aslida kamchiliklardan holi emas edi. Chunki, qariyb 1400 yildan buyon aholisining asosiy qismini musulmon arablari tashkil qilgan Falastin hududining 2/3 qismi yahudiylarning kelgusida tuzilajak davlati tarkibiga o'tkazilishi rejasi bu o'lkaning haqiqiy egalari bo'lmish falastinliklarda norozilik kayfiyatini tug'diradi. Oqibatda, ular o'zlarining kamsitilgan g'ururlari himoyasi va o'lkada yahudiylar

davlatini tuzilishiga qarshilik ko'rsatish maqsadida kurashga kirishadilar. Bu birinchi arab – isroil urushlariga olib keladi.

BMT XK ning falastinliklar tomonidan “adolatsiz” deb e'tirof etilgan 181-sonli rezolyutsiyasining qabul qilinishi asosida ham katta siyosiy o'yin yotardi. BMT XK da asosiy o'rinda turgan AQSH va SSSR o'rtasidagi “sovuq urush” munosabatlari bu rejaning tayyorlanishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Yaqin Sharq mintaqasida o'zining strategik mavqeini mustahkamlashga intilgan AQSH yahudiylar davlatini tuzishga va bu davlatga ajratiladigan hudud asosiy katta shaharlar va boy sanoat rayonlaridan iborat bo'lishligiga urg'u beradi. AQSH yahudiylar davlati orqali Yaqin Sharqdagi o'zining mavqeini mustahkamlashga harakat qilgan va bunga erisha olgan.

Kapitalistik va sotsialistik munosabtlar manfaatlari to'qnashgan Yaqin Sharqda AQSh boshchiligidagi kapitalistik davlatlar tomonidan ma'qullangan 181-sonli rezolyutsiya bugungi kunimizgacha hanuz o'zining aniq yechimini topolmagan Falastin muammosi (mustaqil Falastin davlatini tuzish) ning paydo bo'lishidagi asosiy omillardan biriga aylanadi.

“ADLning Falastin muammosi bo'yicha tutgan pozitsiyasi va hozirgi

kunda Falastin davlati“deb nomlangan uchinchi bobga xulosa qilib shuni alohida qayd etish lozimki, bu muammoni bartaraf etishda ADLga a'zo turli arab davlatlari o'zlarining turlicha pozitsiyalarini ko'rsatdilar. Achinarli tomoni shundaki, bu jarayonda ham ma'lum bir arab davlati pozitsiyasida doimiy qat'iylik va joynkuyarlik ko'zga tashlanmadi. Jumladan, ADL orasida yetakchi davlat bo'lgan Misr bu muammoni bataraf etishda turli prezident davlatlarida turlicha pozitsiyasini namoyon etdi. J.A.Nosir prezidentligi davrida “Falastin xalqi o'zlarining mustaqil davlatini tuzishi kerak” - degan shior ostida harakat qilingan bo'lsa, liberal qarashli A. Sadat Falastin xalqini Isroil davlati tarkibida bir avtonomiya ostida yashashlari yetarli deb hisobladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar (BMT va ADL) ning bu muammoni bartaraf etishga bo'lgan harakatini salbiy baholagan arab – falastinliklarning Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT) tashabbusni

o'z qo'liga olib, dastlab qurolli qarshilik ko'rsatish orqali (60-80- yillarda), keyinchalik muzokaralar va tinch yo'l bilan (90-yillarning birinchi yari) bo'lsa-da, bu muammolarni bartaraf etishga kirishadilar. Natijada, 1988-yilda Jazoir shahrida Falastin davlati tuzilganligi e'lon qilinadi. Bu qog'ozdagi bir e'lon bo'lib qolgan bo'lsa-da, keyingi voqealar uchun zamin hozirladi. 1993-yilda FOT va Isroil davlati rahbarlari kelishuvlari oqibatida G'azo sektori Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'i hududida Falastin muxtoriyati (1994) tashkil topadi. 2002-yilda Falastin davlatchiligini tuzish uchun yakuniy harakat bo'lishi rejalashtirilgan "Yo'l xaritasi" rejasi qabul qilinadi. Ammo bu reja ham amalga oshmay qoladi. Chunki bu vaqtga kelib, Falastin muxtoriyati va FOT rahbarlari orasida ham ichki ziddiyatlar yuzaga keladi. Qolaversa, "Xamas" va "Islom jihodi" kabi G'abr davlatlari tomonidan terroristik tashkilot deb e'lon qilingan guruhlar bu muammoning tinch yo'l bilan, kelishuvlar asosida hal etilishiga qarshilik ko'rsatadilar.

2006-yilgi parlament saylovlari natijasida Falastin muxtoriyatida hokimiyat tepasiga "Xamas" tashkilotining kelishi bu muammolarning bartaraf etilishiga yana bir bor o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki bu guruhning "Isroilni davlat sifatida butunlay yo'q qilish" to'g'risidagi xomxayol dasturi vaziyatni yanada chigallashtiradi. Shu bois muxtoriyat rahbari M.A.Abbos 2006-yil kuzida "Xamas" guruhining hukumatini noqonuniy hukumat deb e'lon qiladi. Lekin endi kech bo'lgan edi. "Xamas" guruhi G'azo sektorida o'zining to'la nazoratini o'rnatib olgan edi. Natijada kichikkina muxtoriyat hududida ham qo'shhokimiyatchilik (G'azo sektorida "Xamas", Iordan daryosining G'arbiy qirg'og'ida muxtoriyat rahbari M.Abbos boshchiligidagi FATH guruhi) yuzaga keladi.

Hozirgi paytga kelib, Falastinda "Xamas" va FATH o'rtasida o'zaro nizolar bo'lar ekan yaqin Sharq inqirozi (mustaqil Falastin davlatini shakllantirish muammosi) shuning uchun ham o'zining ijobiy natijasini topgani yo'q.

Bizning nazarimizda, Falastin muammosini hal qilishda, birinchi navbatda, Falastin arab xalqining o'zi samarali harakat qilishlari lozim. Bunday samarali

harakat ostida bu xalq o'zlarining siyosiy onglarinin o'zgartirishlari lozimligi yotadi. "Xamas" harakatining "kuch ishlatish" orqali bu muammoni bartaraf etish dasturi bugungi kunda "aqlga sig'maydigan" harakatdir. Bunda "Xamas" tomonlar o'rtasidagi kuchlar nisbatini baholay olishi kerak. Bugungi yahudiylarning Isroil davlati bilan "Xamas" dek kuchli harbiy va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lmagan bir guruh imkoniyatlari o'rtasida yer bilan osamonchalik bafovut mavjudligi butun dunyoga ma'lum. Shu bois, Falastin arab xalqi va "Xamas" kuch bilan emas, balki o'zaro tinch totuv muzokaralar va siyosiy islohatlar yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishlarini anglamog'i lozim.

Bundan tashqari "Xamas" va FATH tashkilotlari o'zaro birlikda koalitsion hukumat tuzishlari bu muammoning yana bir yechimi bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz”. 9-jild. Toshkent. 2001
2. Amir Rashid “Палестинское проблема: история и современность” М.2009. Internet\\mirknig.com
3. Беляев И.П, Примаков.Е.М Египет: время президент Насера. Москва, 1974
4. Дмитриев Е.Ладейкин В. Путь к миру на Ближнем Востоке.М.1974.
5. Из книга Марка Зайчика. «Жизнь Бегина» статья на сайте Z.Man.com. Internet//Vikipediya (22.11.2011)
6.)“История дипломатия” IVтом “политических литература” М. 1975
7. Киселев.В “Махмуд Аббос (Абу Мозин) штрихи к портрету”// “Азии и Африки” 2005. N 7
8. Киселев.К. Марака Рами «Перспективы урегулирования Палестино-Израильского конфликта»\\ “Азии и Африки “ 2005.N 3
9. Козлова А. аспирантка кафедры теории и истории М.О.М.Г.Л.У «Эволюция Палестино-Израилских отношений» Internet//google.ru 04.03.2012. 11:55
10. Куценков А.А.Чичеров А.И. “ Внешняя политика стран Ближнего и Средного Востока” М, 1984
- 11.Кузнецов Д.В Арабо-израильский конфликт: История и современность Издательство БГПУ 2006. Internet\\mirknig.com
- 12.Млечин Л.М. Израилю 60 лет.Internet//Vikipediya. the new times 12.05.2008 17:21 30 апрел 2012

13. Narimonov B. “Arab Davlatlari Ligasi mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlovchi tashkilot sifatida” doklad. Yosh Sharqshunoslarning Akademik Ubaydullo Karimov Nomidagi VIII Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Tezislari. T. 2010
14. Nishonov M. “Yaqin Sharq muammosi va mojaroni tinch hal etish jarayonlari (1948-2002)”. T. 2004
15. Новейшая история арабских стран (1917-1966) М. 1967
16. Примаков Е.М. Анатомия ближневосточного конфликта.
17. Примаков Е.М История одного сговора. М. 1985. стр 124
18. Qurbonov A. “Arab-Isroil urushlari tahlilida Falastin muammosining globallashuv jarayoni” doklad. Yosh Sharqshunoslarning Akademik Ubaydullo Karimov Nomidagi VIII Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Tezislari. T. 2010
19. Sobirjon Yoqubov “Falastin: Kechuvda otlar almashtirilmaydi” <http://hurriyat.uz>. Hurriyat gazetasi 17-iyul 2007-yil 23⁵⁵
20. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” 9-jild. T. 2005

Internet saytlari

21. Государство Израиль. Внешняя политика – статья из электронной еврейской энциклопедии. Internet//Vikipediya
22. Декларация независимости Израиля – статья из электронной еврейской энциклопедии. Intrenet//Vikipediya
23. «Принципы мира на Ближнем Востока» из пакета Кемп-Девидских соглашений (англ.) Internet//Vikipediya
24. Из книга Марка Зайчика. «Жизнь Бегина» статья на сайте Z.Man.com. Internet//Vikipediya (22.11.2011)
25. Млечин Л.М. Израилю 60 лет. Internet//Vikipediya. the new times 12.05.2008 17:21 30 апрел 2012

26. Internet\\Vikipediya. Свободная энциклопедия
27. www. arab league online
28. Two Hundred and seventh plenary meeting. The United Nations (11-мая 1949) Архивировано из первоисточника Internet// Vikipediya 21-август 2011
29. Internet https://WWW.Cia.gov/library/publications/the_world-factbook/geos/dj.Isme
30. <http://www.msrintranet.capmas.gov.eg/pls/fdl/tst12e?fction=1&lname=%201>
Official Egyptian Population clock
31. <http://www.ins.nat.tn/index.php> National Statistics Institute of Tunisia
32. Internet // www.polit. ru